

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 265 (1326), 2024-yil 29-dekabr, yakshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



YANGI TOSHKENT – YANGI O‘ZBEKISTONNING MA’RIFATLI JAMIYAT BARPO ETISH G‘OYASINI O‘ZIDA MUJASSAM ETGAN ASR BUNYODKORLIGI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-dekabr kuni Yangi Toshkent shahri hududidagi qurilish va obodonlashtirish loyihalari bilan tanishdi.



Ushbu yangi shaharga 2023-yil 18-mart kuni tamal toshi qo'yilgan edi. Shu munosabat bilan o'tgan marosimda davlatimiz rahbari u "yashil shahar" bo'lishini aytgan edi. Bu havo va suv tozaligi, muqobil energiya manbalari, daraxtzorlar ko'pligi kabi maqsadlarni o'z ichiga oladi. "Toshkentning yashil belbog'i" loyihasi shu yerdan boshlanadi. 420 gektar maydonda Markaziy bog' barpo etilib, 200 ming tup daraxt ekiladi.

Buning uchun ish hozirdan boshlanib, 50 gektar maydonda ko'chatxona tashkil etilgan. Prezidentimiz shu yerda bo'lib, navnihollarni ko'zdan kechirdi. Bo'lajak daraxtzorlarning landshaft dizayni, sug'orish va parvarishlash tizimi haqida ma'lumot berildi.

Hozirda keyinchalik ko'chirib o'tqazish uchun 27 ming tup manzarali daraxt ko'chatlari ekilgan. Shuningdek, issiqxona, qozonxona,

ko'chatlarni saqlash va sug'orish tizimlari barpo etilgan.

Yangi shaharda tegishli vazirlik va idoralar ishini tashkil etish uchun vaqtinchalik ma'muriy binolar qurilmoqda. Prezidentimiz ulardagi sharoitlar bilan ham tanishdi.

Hozirda yengil konstruksiyalardan 4 ta bino va yordamchi inshootlar barpo etilgan. Bunda to'liq mahalliy qurilish materiallaridan foydalanilgan. Ofislar "open space" uslubida bo'lib, har birida 250 nafargacha xodim faoliyat yuritishi mumkin.

Bu vazirlik va idoralar ishini bosqichma-bosqich shu yerda tashkillashtirish imkonini berib, Toshkentdagi tirbandlikni kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Joriy yil 3-aprel kuni Yangi Toshkent shahrida ilk inshootlar qurilishi boshlangan edi. Davlatimiz rahbari bu ulkan loyiha ilm

va ta'lim maskanlaridan boshlanayotganiga urg'u berib, "Bular ma'rifatli jamiyat barpo etish g'oyamizning asosi va namunasi bo'ladi", degan edi.

Prezidentimiz ushbu majmualar qurilishini borib ko'rdi.

Shulardan biri — O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 4 qavatli majmua o'z nomiga mos milliy dizaynda bo'ladi. Jami 30 ming kvadrat metr maydonda bir paytning o'zida 1 ming 420 nafar kitobxonga sifatli xizmat ko'rsatiladi.

Bu yerda kutubxona fondidagi adabiyotlarni munosib saqlash, sanoqdan o'tkazish, xavfsizligini ta'minlash va sterilizatsiya qilishga mo'ljallangan maxsus asbob-uskunalar o'rnatiladi. Shuningdek, majmua ko'p funktsiyali bo'ladi. Tashrif buyuruvchilar uchun 300 o'rinni kafe, galereya, yengil sport o'yinlari va boshqa qulayliklar tashkil etiladi.

— Men avval aytganimdek, bizning ikkita o'q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri — iqtisodiyot bo'lsa, biri — ma'naviyatdir. Ma'naviy buyuk xalq — iqtisodiy tomondan ham buyuk bo'ladi. Bilimli yoshlar bobolarimizga munosib keng fikrli, milliy g'ururli, yetuk insonlar bo'ladi. Shuning uchun yangi shahrimiz qurilishini ma'rifat maskanlaridan boshlayapmiz. Bular yuz yilga tatigulik ma'naviyat, ma'rifat, ilm o'chog'i bo'lishi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Zamonaviy kutubxonada xodimlar ham shunga munosib bo'lishi, ilg'or axborot texnologiyalari va xizmatlarni yaxshi bilishi kerakligi ta'kidlandi. Shu bois, O'zbekiston Milliy universiteti va boshqa o'quv yurtlarida kutubxonachilar tayyorlash sifatini oshirish vazifasi qo'yildi. Mamlakatimizning 14 ta shahrida kutubxona filiallarini tashkil etib, hududlardagi aholining ham kitob o'qishiga qulaylik yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shaharda Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda "Yangi O'zbekiston" universiteti uchun zamonaviy majmualar ham bunyod etilmoqda. Prezidentimiz ularning qurilish jarayonini ko'zdan kechirdi.

Hozirgi kunda Toshkent davlat pedagogika universitetining yettita fakulteti tarqoq joylashgan. Binolarning aksariyati eskirgan.

Shu bois, universitet uchun qirq gektarlik maydonda 20 ming talabaga mo'ljallangan o'quv binolari quriladi. Shuningdek, 5 ming o'rinni yotoqxona, 300 o'rinni bog'cha, 616 o'rinni maktab, 588 o'rinni akademik litsey, sport va madaniyat saroylari, amfiteatr va boshqa inshootlarni o'z ichiga oladi. Bir so'z bilan aytganda, yuqori reytingli xorijiy oliygohlar tajribasi asosida "bog'cha — maktab — universitet" yaxlitligidagi innovatsion pedagogik klaster tashkil etiladi.

Majmuada pedagog va talabalar uchun eng zamonaviy qulayliklar hozirlanadi. Darslar bir smenaga o'tkazilishi, dual ta'lim yo'lga qo'yilishi evaziga o'qish va amaliyot sifatida o'sish bo'ladi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan "Yangi O'zbekiston" universiteti oliy ta'lim tizimida yangi daraja bo'ldi. Uning o'quv dasturlari dunyo reytingida yuqori o'rinda turuvchi universitetlar professor-o'qituvchilarini jalb qilgan holda, Germaniya standartlari asosida ishlab chiqilgan.

Bu yerda o'qish istagida bo'lgan yoshlar soni yildan-yilga ortmoqda. Bugungi kunda muassasada ming nafardan ortiq talaba ta'lim olmoqda.

Universitet uchun yangi majmua qurilishi uch bosqichda olib boriladi. Dastlab o'quv va rektorat binolari bunyod etilishi ko'zda tutilgan.

Yakunda o'n ming nafar talabani qamrab oladigan beshta fakultet, bir vaqtning o'zida sakkiz ming nafar talabaga xizmat ko'rsatadigan rektorat binosi qad ko'taradi. Kutubxona, muzey, ko'rgazma zali, multimedia xonasi, sport majmuasi, suzish havzasi tashkil etiladi.

Shuningdek, o'qituvchilar uchun 286 o'rinni turar joy, talabalar uchun 2 ming o'rinni yotoqxona qurilishi rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari bu majmualarning kelgusidagi ahamiyatiga to'xtalib, o'quv jarayonini oqilona tashkil etish muhimligini ta'kidladi.

— Bu ma'rifat maskanlari — yoshlarimizga investitsiya. Ulardagi yo'nalishlar, dasturlar, ta'lim sifati va kasblarda Yangi O'zbekistonimizdagi marralar mujassam bo'lishi kerak. Bugun bilim olayotgan yoshlar kelajakda mamlakatimizni oldinga boshlaydigan, muammolarni hal etadigan "kali", — dedi Prezident.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari Yangi Toshkent shahrida transport infratuzilmasi va muhandislik tarmoqlari qurilishi bilan tanishdi.

Ma'lumki, mazkur shahar 1 million aholi yashashiga mo'ljallangan. Infratuzilma shunga mos va uzoq muddatli bo'lishi kerak. Shu bois, hozirgi kunda katta hajmda yer osti muhandislik ishlari bajarilib, ulkan bunyodkorlikka zamin yaratilmoqda.

Shaharda infratuzilma, turmush va ekologiya mutanosib bo'ladi. Masalan, ekologik transport tizimi tashkil etiladi. Metro va elektrobuslar uyg'unlikda harakatlanadi. Transportlar qatnovi uchun 14 ta tunnel, 100 ming avtomobilga mo'ljallangan yer osti turargohlari quriladi. Piyodalar hamda velosipedchilarning to'siqsiz va xavfsiz harakatlanishi uchun keng qulaylik yaratiladi.

Bugungi kunda bo'lajak chorrahalardan birida ustunlar poydevorini quyish va gidrozolyatsiya ishlari bajarilmoqda.

Prezidentimiz bu jarayonni ko'zdan kechirdi. Kelajakni inobarga olib, qurilishda yuqori sifati va tashqi ta'sirlarga chidamli mahsulotlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berdi.

Shuningdek, ayni paytda bir va ikki seksiyali muhandislik kollektorlari qurilishi boshlangan. Ular orqali markazlashgan issiqlik va suv quvurlari, elektr energiyasi, telekommunikatsiya kabi barcha muhandislik tarmoqlari yer tagidan o'tkaziladi.

Shaharda zamonaviy urbanizatsiya talablari asosida "aqlli" texnologiyalar qo'llaniladi. Yurtimizda ilk bor "uch generatsiya" stansiyasi quriladi. Oqova suvlar ham zamonaviy texnologiyalar asosida qayta ishlanib, sug'orish va texnik maqsadlar uchun yo'naltiriladi.

Davlatimiz rahbariga Yangi Toshkentning birinchi bosqichida ko'zda tutilgan loyihalar haqida ham axborot berildi. Auktsion orqali sotuvga chiqarilgan yer uchastkalari g'oliblari o'zlarining investitsiyaviy loyihalarini taqdim etdi.

Shaharga ko'plab mahalliy va xorijiy investorlar qiziqish bildirmoqda. Xususan, birinchi bosqichda 490 million AQSH dollari qiymatidagi 11 ta ko'p funktsiyali majmua, mehmonxona va restoranlar loyihalari boshlangan. Turar joylar, tijorat joylari va ijtimoiy muassasalar hududni gavjullashtiradi. Mehmonxona va restoranlar, o'ziga xos dizayndagi muhtasham binolar tashrif buyuruvchilarga yuqori sifati xizmat ko'rsatishi bilan birga shaharni turizm markaziga aylantiradi.

Yanagi yilda shaharning keyingi bosqichlari uchun yer uchastkalari bosqichma-bosqich taklif qilinadi. Har bir bosqichda yangi investitsion imkoniyatlar va loyihalar taqdim etiladi. Bu, o'z navbatida, nafaqat shaharni rivojlantirish, balki ko'plab yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy biznesni qo'llab-quvvatlashga ham xizmat qiladi.

Umuman, kelajakda shaharda innovatsion texnologiyaga asoslangan, yuqori daromadli 200 mingta ish o'rni yaratiladi. Buning uchun yangi texnoparklar, IT-park, ta'lim va tibbiyot klasterlari tashkil etiladi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari

ONA TABIAT
BILAN UYG'UNLIK

Bugun nafaqat biz, balki ko'plab mamlakatlar iqlim o'zgarishining salbiy oqibatini yaqqol his qilmoqda. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, qazilma yoqilg'ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarning ko'payishiga olib kelmoqda, atrof-muhit va aholi sog'lig'iga zarar yetkazmoqda.

Davlatimiz rahbari 20-noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisidagi nutqida yana bir bor bu muammolarga e'tibor qaratib, qator tashabbus va takliflarni ilgari surdi.

Markaziy Osiyo mintaqasida suv tanqisligi, biologik xilma-xillik kamayishi kabi ekologik

muammolar kuchaymoqda. Buning oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etishga kirishmaslik tiklab bo'lmaz ekologik fojialarga sabab bo'lishi mumkin.

Davomi 2-beta

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINI
HAYOTGA TATBIQ ETISHNING HAL ETUVCHI DAVRI
2024-yil sarhisobiga ayrim chizgilar

Umr – suvdek yugurik, deydilar. Bugungi umrimizga doxil daqiqa, soat, kun, hafta, oy va yillarning o'tish tarzi ushbu azaliy hikmat mantig'iga sig'may va sur'atiga yetib olmay qolayotgandek go'yo. Nega deganda, "yugurik" so'zi ildam, chaqqon, chopqir, chopag'on kabi faqat ijobiy mazmunga ega ma'nolarni anglatadi. Bugungi shiddatli davr esa nafaqat erishilgan yutuq va samaralar, balki kutilmagan tarzda hamda global miqyosda yuzaga kelayotgan turli xataru tahdidlarga ham yondosh kechmoqda.

Buyuk o'zbek yo'li

Shu ma'noda, yakuniga yetgan yil sarhisobi xususida so'z yuritganda, shubhasiz, agar 2023-yil ilk bor referendum asosida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan yil maqomida tariximizga zarhal harflar bilan bitilgan bo'lsa, 2024-yil yangi O'zbekiston Konstitutsiyasini hayotga tatbiq etishning hal etuvchi davri sifatida Vatanimiz tarixiga muhrlanishi aniq, degan fikrga kelamiz.

Chunki yangilangan Bosh qonunimiz "Muqaddima"sida e'tirof etilganidek, xalqimiz ushbu Konstitutsiyani, jumladan, "O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib" qabul qildi.

"Hozirgi zamon va
Yangi O'zbekiston"

(O'zbekiston Prezidentining yangi kitobi)

"Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning chinakam tashabbuskori va murallifi xalqimizdir". Bu haqqoniy e'tirof Prezidentimizning "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston" nomli ikkinchi salmoqli murallifi asarida alohida ta'kidlangan. Kitobda O'zbekistonning keyingi 7 yillik islohotlari natijasi umumlashtirilgan va oldimizda turgan ustuvor vazifalarning mazmun-mohiyati chuqur ochib berilgan.

Vatanimiz dunyoga, dunyo esa yurtimizga yuz tutmoqda. Mintaqamiz va butun jahonda do'stlarimiz, hamkorlarimiz ko'paymoqda. O'zbekiston hozirgi kunda aholi soni bo'yicha jahondagi eng yirik 40 ta davlatdan biri hisoblanadi. Yurtimiz shiddatli demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyat va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda.



Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida 2024-yilda ulkan amaliy qadamlar qo'yildi. Mustaqil yurtimizning har bir qutlug' odimida va bunyodkor xalqimizning har qaysi yutug'ida istiqlolning buyuk qudrati yorqin namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun Prezidentimiz e'tirof etganidek, bugungi O'zbekiston — kechagi O'zbekiston emas, bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas!

Davlatimiz rahbari xalqimizni yana bir haqiqatni unutmashlikka chorlamoqda.

Ya'ni bugungi O'zbekiston — bu hali tom ma'nodagi, biz orzu qilayotgan, intilayotgan yangi O'zbekiston emas. Hali bu marraga yetish uchun oldimizda juda olis va mashaqqatli yo'l turibdi. Lekin biz dadil oldinga borishdan, kerak bo'lsa, kutilmagan, ammo pirovard natijasi samarali va xalqimiz manfaatlariga javob beradigan noan'anaviy qarorlar qabul qilishdan cho'chimasligimiz zarur.

Davomi 3-beta



Insonparvar tashabbuslar

IJTIMOY XIZMATLAR MARKAZLARI XALQIMIZNING YAQIN KO'MAKCHISIGA AYLANDI

Rayyona (ism shartli o'zgartirilgan) 32 yoshda, uch farzandning onasi. Oliyog'ha sirtidan o'qiydi. Maoshi ozligi uchun ikkita tashkilotda ishlashga majbur. Uy-ro'zg'or yumushlari, bolalar tashvishi ham uning zimmasida. Oyligini turmush o'rtog'i olib qo'ygani yetmagandek, ayolning kundalik ehtiyoji uchun sariq chaqayam bermaydi. Ishxonaga qishin-yozin piyoda qatnashga majbur. O'qish uchun shartnoma pulini ham bankdan ta'lim krediti olib to'layapti. Oilada muhit nosog'lom. Eri ichadi, doim arzimaz bahonalar bilan Rayyonani uradi.

O'sha tunda uxlamoqchiligini aytib, er chiroqni o'chirishni buyurdi. Ayol esa ertangi testga tayyorgarlik ko'rishi kerak. Xullas, "xo'jayin"ga tayyor bahona topildi...

Tuman tibbiyot birlashmasiga tan jarohati bilan keltirilgan ayol kuchli stressni boshdan

"o'ralib", undan chiqish yanada yomon oqibatlarga olib keladi, degan tushuncha miyasiga o'mashib qolgandi ayolning. Shu bois, savollarga jo'yali javob bermas, nuqul hammasidan to'yanini aytib bo'zlardi. Ayol tibbiyot birlashmasidagi birlamchi



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

kechirgani, ruhiyati parokanda ekani ma'lum bo'ldi. Tegishli mutaxassislar yordamga keldi. Tibbiyot xodimlari tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markaziga xabar berdi. Tezda psixologlar guruhi yetib keldi.

Albatta, dastlab tazyiq va zo'rvonlikka uchragan Rayyona bilan muloqotga kirishish oson kechmadi. Ipak qurti misoli o'z qobig'iga

ko'mak xonasiga joylashtirildi va mutaxassislar uch kun u bilan individual shug'ullandi. Ko'pchilikning sa'y-harakati bilan juvonning ruhiy-hissiy holati yaxshilandi.

Markaz xodimlari va boshqa tegishli idoralar ayolning turmush o'rtog'i bilan ham suhbatlashdi. Avvaliga ayol kuchli

depressiya iskanjasida vahimaga tushib, uyiga qaytishdan hayiqqan bo'lsa, fursat o'tib, uni tushunadigan, qo'llab-quvvatlaydigan insonlar borligidan tetiklandi. Berilgan maslahat va ko'nikmalardan qoniqish hosil qildi. Eri qilmishidan pushaymon bo'ldi. Bir necha kundan buyon ayolisiz xonadoni fayzsiz bo'lib qolganini, bolalari ham onasini sog'inganini aytib, qaytishini so'radi. "Endi seni ursam, qo'lim sinsin!" dedi eri va kelgusida qo'l ko'tarmaslikka va'da berdi. Hozir oila totuv umrguzaronlik qilyapti. Er ham, xotin ham yarashganidan mamnun. Ular ko'mak uchun tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi xodimlaridan minnatdor.

— Tuman ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan hududlardagi har bir xonadon imkoniyatlari o'rganilib, ijtimoiy pasporti shakllantirilyapti. Mahallaning o'zida yigirmadan ortiq xizmat ko'rsatilmoqda. Bu orqali joylarda moddiy yordam, ijtimoiy

Yaqinlar o'rtasidagi rishta tiklandi

Bugun tumanda salkam 188 ming fuqaro istiqomat qilayotir. Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar va oilalarni qo'shib hisoblaganda, ular soni 13 mingdan oshadi. Shundan 69 nafari yakka-yolg'izlar, 7381 nafari nogironligi bo'lgan shaxslar, 5189 nafari kam ta'minlangan oila a'zolari, 7 nafari yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlar hamda noto'liq oilalar bolalaridir. 30 nafar ijtimoiy xodim aholining muayyan toifalariga turli yordam ko'rsatib kelmoqda.

Shu kungacha tazyiq va zo'rvonlikdan aziyat chekkanlarning 182 nafariga himoya orderi olib berilgan, 2 nafari reabilitatsiya qilingan.

Vazirlar Mahkamasining joriy yil 11-martdagi O'zgalor parvarishiga

Bugun tumanda salkam 188 ming fuqaro istiqomat qilayotir. Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar va oilalarni qo'shib hisoblaganda, ular soni 13 mingdan oshadi. Shundan 69 nafari yakka-yolg'izlar, 7381 nafari nogironligi bo'lgan shaxslar, 5189 nafari kam ta'minlangan oila a'zolari, 7 nafari yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlar hamda noto'liq oilalar bolalaridir. 30 nafar ijtimoiy xodim aholining muayyan toifalariga turli yordam ko'rsatib kelmoqda.

xizmatlar, bandlik, subsidiya, kredit va boshqa masalalarga oid murojaatlar hal etilishiga erishilmoqda, — deydi Buxoro viloyati Shofirkon tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi direktori Tursunoy Yo'ldosheva.

muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarorga muvofiq, o'zgalor parvarishiga muhtoj yolg'iz yashovchi keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar "Inson" ijtimoiy

xizmatlar ko'rsatish markazlari tomonidan tasdiqlangan jadval asosida bir yilda kamida bir marotaba chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi belgilangan. Joriy yilda tumandagi barcha yakka-yolg'izlar mana shunday ko'rikka jalb etildi. Ayni paytda tibbiyot xodimlari taqdim etgan xulosalar bo'yicha ularni sog'lomlashtirish tadbiri davom ettirilmoqda. Yolg'iz yashovchi 16 nuroniyning qarindoshlari bilan munosabati tiklandi.

Joriy yilda shu toifadagi fuqarolarning 50 dan ortig'iga oziq-ovqat mahsulotlari, 40 ga yaqiniga dori-darmon olib berildi, 2 nafarining uyi ta'mirlandi, 7 nafariga shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarini bepul almashtirishda amaliy yordam ko'rsatildi. Shuningdek, markaz tavsiyasi bilan tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi tomonidan ularning uyi dezinfektsiya qilindi.

Imkoniyati cheklanganlar sportga jalb etilmoqda

Nogironligi bor shaxslarni parasportga yo'naltirish va buning uchun munosib sharoit yaratib berish mamlakatimizda ustuvor vazifalardan. Buning uchun "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan sertifikatga ega murabbiy jalb etilgan. Hozir u nogironligi bor 6 fuqaroni shug'ullanirib kelmoqda. Kelgusida bu chora-tadbirlar orqali parasportga qiziquvchi 200 ga yaqin imkoniyati cheklangan fuqaroni qamrab olish ko'zda tutilaypti.

Tuman tibbiyot birlashmasi bilan hamkorlikda belgilangan toifadagi fuqarolarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazib, sog'lomlashtirish ishlari davom ettirilyapti.

Keksalar va nogironligi bo'lgan fuqarolarning 461 nafari yo'llanma asosida sanatoriylarda sog'lomlashtirildi, 2746 nafari esa yo'llanma olish uchun navbatga qo'yildi.

Shijoati ibrat qiz

Imkoniyati cheklangan, vaqtincha ishsizlar bandligini ta'minlash ham asosiy vazifalardan bo'lib qolmoqda. Jumladan, 10 dan ortiq fuqaro "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan turli korxona va tashkilotlarga ishga joylashtirildi. Qolaversa, O'zbekiston Nogironlar assotsiatsiyasi Buxoro viloyati bo'limi hamda markaz hamkorligida tumandagi Pattaxon mahallasida "Pattaxon textile" MCHJ ochildi. Mazkur korxona nogironligi bo'lgan o'ndan ortiq fuqaroni ish bilan ta'minladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning 175 nafari kasb-hunarga o'qitish orqali jamiyatga integratsiya qilindi.

Sog'lom bo'la turib, imkoniyatlardan foydalanmaydigan, harakatsizligi uchun kimlamidir ayblaydiganlar ham yo'q emas oqimda. Lekin umr bo'yi dard bilan kurashib kelgan, imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramay, ruhiyati tetik, o'ziga ishongan va intiluvchan vatandoshlarimizni ko'rib xursand bo'lib ketadi kishi.

Xo'ja Orif qishlog'ida yashovchi Aleksandra Is'hoqova ham mana shunday yoshlardan. U markazning imtiyozli kvotasi asosida Buxoro davlat universitetining ingliz filologiyasi fakultetiga o'qishga kirdi. Ingliz tili bo'yicha B2 darajali xalqaro sertifikatga ega bu qiz ijtimoiy xizmat markazi xodimlari, mahallasi, qo'shnilari, patronaj hamshiralarning beminnat yordami, qo'llovi bilan shu darajaga yetganini ta'kidlab keladi. Zero, bunga qadar unda odamovilik, tushkunlik, o'ziga ishonchsizlik ustuvor edi. Psixologlar u bilan ishlash, og'ir vaziyatdan olib chiqishga muvaffaq bo'ldi.

— Taqdirimdan hech qachon nolimayman. Atrofimdagi ko'nglimga dalda bo'ladigan insonlar ko'pligi menga kuch-g'ayrat bag'ishlaydi. Shu bois, imkoniyati cheklanganlar bilan emas, to'rt muchasi sog' tengqurlarim bilan birga o'qishni istadim. Bu esa menga kelajakka ishonch bilan qarashni o'rgatdi. Sog'lom dugonalarim bilan birga o'qish, ular bilan muloqotda bo'lish meni ruhlantiradi, — deydi Aleksandra. — O'zbek tilida ham ravon so'zlashishni o'rganib oldim. O'z oldimga katta maqsadlar qo'yanman.

Orzum — tarjimon bo'lish. Jahon adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga o'girish orqali vatanimga xizmat qilmoqchiman.

Intiluvchan qiz ijtimoiy xizmatlar markazining tadbirlarida volontyor sifatida o'zini namoyon etmoqda. Mehrga, e'tiborga muhtojlar holidan xabar olish, dalda bo'lish ishlariga hissa qo'shayotir. Markaz ingliz tili o'quv markazi ochib berish va shu yo'l orqali shijoatni qizni daromadli ish bilan ta'minlashni rejalashtirgan.

Hamzabek TURDIYEV, jurnalist

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

ONA TABIAT BILAN UYG'UNLIK

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz bu masalaning oqibatlarini oldindan ko'rib, mazkur yo'nalishda katta ishlarni bajarib kelmoqda. Xususan, bundan uch yil avval boshlangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi hozirga kelib, chin ma'noda xalq harakatiga aylandi. Ushbu dastur qator hududlar, jumladan, Orolbo'yidagi ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qilmoqda. Qo'shni mamlakatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishildi.

Shuningdek, O'zbekiston xalqaro huquqning teng huquqli a'zosi sifatida ekologiya sohasida o'nlab xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilgan. BMT tomonidan bu borada qabul qilingan ikkita muhim rezolyutsiya tashabbuskori bo'ldi.

Shu bilan birga, qator muhim majburiyatlarni bajarish yuzasidan milliy dastur va chora-tadbirlar rejasini amalga oshirilmoqda. Ushbu majburiyatlar fuqarolarning ekologik huquq va erkinliklarini ta'minlash, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik muhitga yetkazilayotgan salbiy oqibatlarni kamaytirish asnosida iqlim o'zgarishlarining ta'sirini yumshatishga qaratilgan.

Yer sharida aholi soni ortishi, atmosfera zararli gazlar miqdori ko'payishi bir qancha ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Boz ustiga yangidan-yangi ekologik tahdidlar paydo bo'lmoqda. Dunyoning bir burchida issiq ob-havodan odamlar jabr chekayotgan bo'lsa, yana bir joyda suv toshqini kuzatilmoqda. Qaysi bir issiq go'shalarida qor, do'l, yomg'ir yog'ib, katta-katta hududlarni suv bosmoqda.

Xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish bilan bog'liq global muammolar, o'z navbatida, barqaror rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga borib, iqlim o'zgarishi sababli 216 milliondan ortiq odam o'z mamlakatini tark etishi mumkin. Xususan, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda 5 million iqlim migranti paydo bo'lishi taxmin qilinmoqda.

Shu bois, iqlim o'zgarishining oqibatlarini yumshatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda "yashil" energetika iqtisodiyot drayverlaridan biriga aylantirilmoqda. Prezidentimiz bu yo'nalishda boshlangan ishlarni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida 2025-yilni yurtimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qildi. Davlatimiz rahbari barcha yirik xalqaro anjumanlarda dunyo jamoatchiligi e'tiborini bu muammolarga qaratib kelmoqda. Xususan, noyabrda Ozarbayjonda bo'lib o'tgan Iqlim sammitidagi nutqida beshta muhim taklif va tashabbusni ilgari surdi.

Birinchisi, rivojlanayotgan mamlakatlarga iqlim xatarlarini aniqlash uchun yetakchi davlatlar va xalqaro institutlarning texnik ko'magini kengaytirish. "Bu borada iqlim tufayli yo'qotish va zararlarni baholash bo'yicha xalqaro markaz ta'sis etishni taklif qilamiz", dedi davlatimiz rahbari.

Ikkinchisi, tranzhegaraviy suv resurslari ifloslanishining oldini olish va barqaror bioxilma-xillikni saqlashda yagona yondashuvlar zarurligi qayd etildi. Davlatimiz rahbari "Mintaqamiz misolida aytib o'tmoqchiman, bir avlod ko'z o'ngida Orol dengizining butunlay yo'qolishi sayyoramiz miqyosidagi fojiga aylandi. Shu o'rinda biz BMT shafeligida



Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha majburiyatlar to'g'risidagi deklaratsiyani ishlab chiqish tarafdorimiz", dedi.

Uchinchisi, ko'p tomonlama yetakchi tuzilmalar ishtirokida o'simliklarning iqlim o'zgarishlariga chidamliligini oshirish uchun

Konstitutsiyamizning 68-moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir", deb mustahkamlanishi davlat ekologik siyosatining muhim strategiyasini belgilaydi. Xususan, ushbu norma, birinchidan, har bir davlatning suvereniteti, avvalo, uning hududidagi tabiiy resurs va boyliklarga mustaqil egalik qilish huquqi bilan belgilanadi.

Genetik resurslarning mintaqaviy bankini ishga tushirish reja qilingani bildirildi. Bu haqda gapirar ekan, "Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan davlatlar uchun yurtimizda BMTning innovatsion agrosanoat xabini yaratish tashabbusini ilgari suramiz", dedi davlatimiz rahbari.

To'rtinchisi, iqlim o'zgarishidan zarar ko'rayotgan megapolis va shaharlarning barqaror rivojlanishi bo'yicha ilg'or bilim va amaliyotlar transferi uchun Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etish va uning birinchi forumini Toshkentda o'tkazish taklif qilindi.

Beshinchisi, Prezidentimiz "Kelgusi yili 15-may — Xalqaro iqlim kunida Orolbo'yi mintaqasida o'tkaziladigan Raqamli "yashil" tashabbuslar global yoshlar festivalida davlatlarimiz vakillarini kutib qolamiz", deya g'oyat muhim tashabbuslarni bildirdi.

Shuningdek, Parij bitimi doirasida mintaqada havo haroratining jadal o'sishiga yo'l qo'yimaslik va joriy yuz yillikda 1,5-2 gradus atrofida saqlab qolish, bu borada O'zbekistonda uglerod neytralligiga erishish bo'yicha keng miqyosdagi islohotlarni qat'iy davom ettirayotgani qayd etildi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, iqlim o'zgarishlari bugun asosiy global tahdidga aylanib, geosiyosiy keskinlikning kuchayishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida, kambag'allikka qarshi kurash, oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta'minlash, ichimlik suv va resurslardan foydalanish muammolariga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

2030-yilgacha havoga isciqxona gazi chiqarilishini 35 foiz kamaytirish, bu majburiyatni 2050-yilga qadar yanada kengaytirish, shuningdek, "yashil" energetika ulushini 40 foizgacha oshirish, elektromobil va "yashil" vodorod klasterlari, quyosh va shamol generatsiya xabari yaratilayotgani bu muammoning oqilona yechimidir.

So'nggi yillarda Orolning qurigan tubida 2 million gektarga yaqin yerda ekilgan o'simliklarning dastlabkilari ko'karib, dengiz tubini yashil qoplamaga aylantirmoqda. Bu esa dengizning ochilib qolgan hududidan zararli qum atmosfera ga ko'tarilishining oldini olishga xizmat qiladi.



Markaziy Osiyodagi ekologik tahdidlar asosida, albatta, Orol dengizining qurishi bilan bog'liq murakkab vaziyat yotadi. Mintaqadagi ekologik muhitni yaxshilash, biologik xilma-xillikni tiklash, cho'llanish jarayonining oldini olish va aholining ichimlik suv ta'minotini yaxshilash hamda iqlim o'zgarishlariga moslashish kabi dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlaridir.

Global iqlim o'zgarishi fonida barcha davlatlarda sanoat rivojlanishi va aholi soni ortishi iqtisodiyotning tabiiy resurslarga ehtiyojini keskin oshirmoqda. Shuningdek, atrof-muhitga salbiy antropogen ta'simi kuchaytirmoqda va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda. Konstitutsiyamizning 66-moddasida "Mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak", deb qat'iy mustahkamlangan. Ushbu nomaning ahamiyati shundaki, birinchidan, mulkdorning mulkiy huquqlarini kafolatlaydi, ikkinchidan, mulk egalarning har qanday ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini ekologik normativ va standartlar doirasida amalga oshirish majburiyatini belgilaydi. Bu esa, o'z navbatida, "yashil" iqtisodiyot tizimini shakllantirishning muhim omilidir.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining

ekologik xavfsizligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy yo'nalishlaridan. Konstitutsiyamizning 68-moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir", deb mustahkamlanishi davlat ekologik siyosatining muhim strategiyasini belgilaydi. Xususan, ushbu norma, birinchidan, har bir davlatning suvereniteti, avvalo, uning hududidagi tabiiy resurs va boyliklarga mustaqil egalik qilish huquqi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham tabiiy resurslarga nisbatan mulk masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, xalqimizning umummilliy boyligi, ya'ni davlatimizning mulki sifatida konstitutsiyaviy norma bilan mustahkamlanmoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham "yashil" iqtisodiyotga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish borasida qator vazifalar belgilangan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming megavatt hamda jami iste'moldagi ulushini 40 foizga yetkazish, sanoatda "yashil sertifikat"lar bozorini rivojlantirish va "ekologik markirovkalash" amaliyotini joriy qilish, shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yonilg'iga o'tkazish, iqlim o'zgarishi sohasida barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini (MRV) yaratish shular jumlasidan.

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINI
HAYOTGA TATBIQ ETISHNING HAL ETUVCHI DAVRI
2024-yil sarhisobiga ayrim chizgilar

Akmal SAIDOV,
Inson huquqlari bo‘yicha
O‘zbekiston Respublikasi
Milliy markazi direktori,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati

Boshlanishi 1-betda

Shu nuqtayi nazardan, **“Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston”** asarining quyidagi asosiy xususiyatlarini sanab o‘tish o‘rinli:

birinchi xususiyati: O‘zbekistonning umumbashariy muammolari bartaraf etish va barqaror taraqqiyotni ta‘minlashga qaratilgan global tashabbuslariga e‘tibor berilgan;

ikkinchi xususiyati: mamlakatimiz ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari alohida ta‘kidlangan;

uchinchi xususiyati: yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish hamda milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar mohiyati va ahamiyati chuqur mushohada qilingan;

to‘rtinchi xususiyati: rivojlanish strategiyalarimizning maqsadi, asosiy tamoyillari, falsafasi va mazmun-mohiyati keng ochib berilgan;

beshinchi xususiyati: hozirgi zamonda yangi O‘zbekistonda taraqqiyot etirishning joriy holatiga xolis baho berilgan holda milliy taraqqiyotimiz istiqbolari haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kitobning e‘tiborga sazovor jihati shuki, yangi O‘zbekistondagi ko‘p qirali siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar, mamlakatimiz va jahon hamjamiyati o‘rtasidagi munosabatlarning biror yo‘nalishi muallif e‘tiboridan chetda qolmagan. Prezidentimiz kamtarlik bilan qayd etganidek, **“Biz siz bilan birgalikda bashariyatning ajralmas qismi hisoblangan, butun dunyoda Yangi O‘zbekiston, deya e‘tirof etilayotgan jonajon Vatanimizning tarixan nihoyatda qisqa, mazmunan bir necha o‘n yilliklarga tatigulik murakkab va sharaflı yo‘liga yana bir bor nazar tashladik”**.

Hozirgi zamonning shiddatli va ziddiyatli taraqqiyot tamoyillarini murakkab va tahlilali davr nuqtayi nazaridan tushunish, bugungi tinch va farovon hayotimizning qadriga yetish, kelajakka katta ishonch bilan qarab, yangi O‘zbekistonda barpo etish jarayonlarida ongli va buyundkor fuqaro sifatida munosib ishtirok etish, yangi vatanparvar avlodni tarbiyalashda ushbu asarning ahamiyati beqiyos. Muhimi, muallif chorlaganidek, **“Yangi O‘zbekiston barchamizniki ekanini, uning orzudan — haqiqatga, imkoniyatdan — voqeelikka aylanishi bizga bog‘liq ekanini aslo unutmaylik”**.

Yangi tahrirdagi
Konstitutsiya va saylov

Yangilangan Konstitutsiya qabul qilingani yangi O‘zbekiston hayoti barcha sohalarining konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, konstitutsiyaviy normalar va umume‘tirof etilgan xalqaro saylov standartlari asosida Saylov kodeksi tubdan takomillashtirildi.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 27-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda Qorag‘alpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, shuningdek, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahri va tuman (shahar) kengashlari deputatligiga bo‘lib o‘tgan saylovning quyidagi xususiyatlariga e‘tibor qaratdi:

birinchidan, saylov yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq o‘tkazilgan birinchi saylov sifatida tarixga kirdi;

ikkinchidan, O‘zbekistonda saylov ilk bor aralash tizim asosida o‘tkazildi;

uchinchidan, ushbu saylovda huquq va vakolatlari sezilarli darajada kuchaygan, mas‘uliyati bir necha karra ortgan yangi xalq vakilligi tizimi shakllantirildi;

to‘rtinchidan, bu jarayonda siyosiy partiyalarning faolligi oshdi, ular o‘rtasida kuchli raqobat sezildi;

beshinchidan, saylov to‘raligicha ochiqlik, oshkoralik va shaffoflik muhitida o‘tdi;

oltinchidan, saylovning barcha bosqichlari to‘liq raqamlashtirildi, “E-saylov” axborot tizimi joriy etildi. Ilk bor elektron ovoz berish tartibi sinovdan o‘tkazildi. Ovoz berish jarayonlarini onlayn kuzatish imkoniy yaratildi;

yettinchidan, Markaziy saylov komissiyasining mustaqilligi oshdi, professional saylov organlari tashkil etildi;

sakkizinchidan, saylovda 15 milliondan ziyod saylovchi qatnashdi. Bu natija islohotlarimizga ishonch ortganini ko‘rsatadi va xalqimiz yangi O‘zbekistonda qurish borasidagi sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlayotganining yaqqol dalilidir.

Saylov kampaniyasida ishtirok etgan siyosiy partiyalarning shiddat-shijoati ham qator yangicha jihatlari bilan e‘tiborni tortdi. Xususan:

— siyosiy partiyalar saylovga jiddiy tayyorgarlik ko‘rgani yaqqol sezildi;

— partiyalar saylovga aniq g‘oya va dasturlari bilan chiqdi;

— har bir partiya o‘z a‘zolari va elektorati talablariga asoslangan amaliy takliflarini ilgari surdi.

Shunday qilib, 2024-yilgi saylov, bir tomondan, yakuniga yetgan yilning eng muhim ijtimoiy-siyosiy voqeasi, ikkinchi tomondan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalga oshirish yo‘lidagi yana bir salmoqli amaliy qadam hisoblanadi.

Bu haqda so‘z borganda, birinchi navbatda, Prezidentimizning 2023-yil 8-mayda qabul qilingan **“Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni** asosida o‘lnab qonun va qonunosti hujjatlar yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaga muvofiqqlashtirilganini ta‘kidlash lozim.

Bundan tashqari, 2023-yil 7-noyabrda Prezidentimizning **“Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi farmoni** qabul qilindi. Farmon bilan davlat rahbarining 10 ta farmoni va 4 ta qaroriga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi.

O‘zbekiston Prezidenti 2024-yil 19-fevralda **“Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni** imzoladi.

Shuningdek, 2024-yil 17-oktabrda **“Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi**



Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

Ushbu qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga hokimlar hamda xalq deputatlari kengashlarining vakolatlarini aniqlashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Bularning barchasi bejiz emas. Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining saylovdan keyin, 2024-yil 18-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan birinchi majlisidagi nutqida e‘tirof etganidek, **“Yangi O‘zbekistonda barpo etishga kirishganimizga sakkiz yil bo‘ldi. Bu davrda xalqimizning siyosiy tafakkuri tubdan o‘zgardi, siyosiy madaniyati sezilarli darajada yuksaldi”**.

Prezidentning parlament
haftaligi

O‘zbekiston Prezidentining 2024-yilda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasi ham avvalgilardan butunlay farqli va o‘ziga xos bo‘ldi. Bu o‘rinda Murojaatnoma parlamentga yaxlit va yagona dasturiy hujjat sifatida taqdim etilmassdan, balki davlatimiz rahbarining 2024-yil 18, 19 va 20-noyabr kunlari Qonunchilik palatasi va Senatning birinchi majlislarida hamda har ikki palataning ilk qo‘shma majlisida so‘zlagan nutqlari Murojaatnoma maqomida e‘lon qilingani haqida so‘z bormoqda.

Ushbu Murojaatnomada, birinchi navbatda, mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ta‘siri va ilk amaliy natijalari chuqur tahlil etildi. yangilangan



Konstitutsiyani hayotimizning barcha sohalariga teran tatbiq etish istiqbollari belgilab berildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 105-moddasida quyidagi muhim norma bor: **“O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta‘minlaydi”**.

Parlamentga taqdim etilgan **beshinchi Murojaatnoma** timsolida yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini hayotga tatbiq etishda davlatimiz rahbari qanday o‘rnak va namuna ko‘rsatganiga e‘tibor qaratish ayni muddaodir. Chunki dunyoning ba‘zi mamlakatlarida davlat boshlig‘i goh sud hokimiyati, gohida ijro etuvchi hokimiyati — hukumat bilan o‘zaro nizoda bo‘lsa, ba‘zan qonun chiqaruvchi hokimiyat, ya‘ni parlamentdan cho‘chib turishi holatlari uchraydi.

Shu nuqtayi nazardan, **O‘zbekiston Prezidenti yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 11-moddasida belgilab qo‘yilgan davlat hokimiyati tizimidagi uch tarmoq — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini nechog‘liq muvaffaqiyat bilan ta‘minlab kelayotgani tashingsa sazovor**. Buni Prezidentning yangi Murojaatnomasi taqdim etilishi bilan bog‘liq quyidagi omillar misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

“Yangi O‘zbekiston dunyoning 156 ta davlati bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Yurtimizda 46 ta chet el elchixonasi, 3 ta bosh konsullik, 13 nafar faxriy konsul, 24 ta xalqaro va 27 ta xorijiy tashkilot vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O‘zbekistonning 59 ta diplomatik va konsullik vakolatxonasi mavjud. Mamlakatimiz 100 dan ortiq xalqaro tashkilot a‘zosi, turli ko‘p va ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini izchil rivojlantirib kelmogda.

Birinchi omil: yangi saylangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi bilan yangi tayinlangan hukumat o‘rtasida kelishilgan holda faoliyat yuritish amaliyoti muvofiqqlashtirildi. Buning uchun o‘zaro hamkorlikni ta‘minlaydigan eng maqbul takliflar olg‘a surildi.

Ikkinchi omil: Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri, Senat Raisi va Bosh vazir lavozimlariga eng munosib nomzodlar taklif etildi. Parlament palatalari tomonidan ushbu kadrlarning bir ovozdan ma‘qullangani, o‘z navbatida, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari o‘rtasida kelgusidagi samarali hamkorlikni kafolatlaydi.

Uchinchi omil: yangi O‘zbekiston milliy taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari va eng asosiy vazifalari belgilab berildi.

To‘rtinchi omil: istiqboldagi qonun ijodkorligi dasturi doirasida yaqin yillarda parlament qabul qilishi hamda hukumat amalga oshirishi kerak bo‘lgan eng muhim qonunlar ro‘yxati taklif etildi.

Beshinchi omil: aholining ma‘naviy-ma‘rifiy va siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ayniqsa, yoshlarni davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash, jamiyatda konstitutsiyaviy vatanparvarlik tuyg‘usini oshirish yuzasidan amaliy takliflar bildirildi.

Oltinchi omil: davlatimiz tashqi siyosatining tinchlik, barqarorlik va o‘zaro manfaatli hamkorlik tamoyillariga asoslangan ustuvor sohalarini rivojini ta‘minlashga e‘tibor qaratildi.

Keyingi davrda yangi O‘zbekistonning xalqaro reytinglarida o‘rni yaxshilannmoqda. Prezident nufuzli xalqaro minbarlardan katta-katta tashabbuslarni olg‘a surmoqda. Ularning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqqa yetkazishda deputat va senatorlar faol bo‘lishi kerak.

O‘z navbatida, Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan majlisida so‘zlagan nutqida yangi hukumat faoliyatining muhim yo‘nalishlariga e‘tibor qaratdi.

Shu bilan bog‘liq holda Vazirlar Mahkamasining quyidagi ustuvor vazifalari belgilab berildi.

Birinchi ustuvor vazifa: ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini odamlarga yanada yaqinlashtirish lozim.

Ikkinchi ustuvor vazifa: ijroiya organlari qarorlar qabul qilishda qonuniyligini ta‘minlashi shart. Hozir esa qonunosti hujjatlarini jamoatchilik bilan maslahat qilishga rioya etilmayapti. Hukumat taqdim etayotgan qonun loyihalarining sifati pastligicha qolmoqda. Zotan, xitoy faylasufi Shan Yan aytganidek, **“Yaxshi qonun xalqqa hurmat ifodasidir”**.

Uchinchi ustuvor vazifa: hukumat va vazirliklar joylarda aniqlangan muammolari hal etishda Qonunchilik palatasi qo‘mtalari bilan tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi zarur. Nazorat organlari hisobotlarini parlament qo‘mtalarida muhokama qilish kerak. Bundan keyin vazir o‘rinbosarlaridan biri Qonunchilik palatasi qo‘mtalari bilan hamkorlik uchun mas‘ul bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, **“Parlament nazorati — bu, avvalo, xalq nazorati, xalq so‘rovi”**. Shu ma‘noda, parlament va deputat so‘roviga har bir rahbar shaxsan javob berishi shart.

To‘rtinchi ustuvor vazifa: samarali tashqi siyosat yuritish uchun, jumladan, Tashqi siyosat konsepsiyasini yangi tahrirda qabul qilish kerak. Markaziy Osiyo beshligi doirasidagi har tomonlama hamkorlikka ko‘maklashish ham doimiy e‘tiborda turishi dardkor.

Beshinchi ustuvor vazifa: davlatimiz suvereniteti, tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash,

milliy g‘urur va vatanparvarlikni kamol toptirish, yoshlar tarbiyasi kabi sohalaridagi vazifalarni o‘zida qamraydi.

Prezidentimiz yangi saylangan deputat va senatorlarni haqli ogohlantirganidek, xalq xizmatchisining mas‘uliyatini o‘z zimmasiga olganidan so‘ng beg‘am, beparvo, loqayd bo‘lib yurishga, huzur-halovatga berilib yashashga ma‘naviy haqqi yo‘q.

Inson qadri va huquqlarini
ta‘minlash

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston inson huquqlari sohasiga id 80 dan ortiq xalqaro hujjatga qo‘shildi va ularni ratifikatsiya qildi. So‘nggi 8 yilda qabul qilingan uchta kompleks taraqqiyot strategiyasi hamda turli sohalarini rivojlantirishga id 60 dan ziyod strategiya, konsepsiya va dasturga insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning rivojlanishi va salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun sharoit yaratish, ijtimoiy tenglik kabi tamoyillar, g‘oyalar to‘liq singdirildi.

O‘zbekiston Prezidenti **“Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bizga inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik, tenglik va taraqqiyot tamoyillariga asoslangan huquqiy va adolatlı davlat qurish yo‘llarini keng ochib berdi”**, deb ta‘kidlagani zamirida g‘oyat ulug‘vor haqiqatlar mujassam. Agar dunyo mamlakatlari konstitutsiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqi qayd etilgan bo‘lsa, bu huquqlarning 90 tasi endi mamlakatimizning Bosh qonunida mavjud va shu huquqlardan 40 tasi yangi konstitutsiyaviy huquqlardir.

Konstitutsiyamizning 20-moddasiga binoan: **“Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi”**.

O‘zbekistonda 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha qamrovdor sa‘y-harakatlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu yo‘ldagi barcha intilishlarimiz

BMtning har bir inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan **“Hech kimni unutmashlik va ortda qoldirmaslik”** asosiy tamoyiliga muvofiqdir.

E‘tiborli jihati, **“O‘zbekiston — 2030”** strategiyasida BMtning Barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur strategiya doirasida inson huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan yangi chora-tadbirlar qabul qilindi.

Xususan, 2025-yil 1-yanvardan jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlarida tergov sudyasi lavozimi joriy etiladi. Ushbu sudyaga **“xabeas korpus”** institutini qo‘llash borasida bir qator vakolatlari berilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada har bir insonning o‘z huquqlarini himoya qilish uchun milliy va xalqaro institutlarga murojaat qilish huquqi kafolatlandi. Konstitutsiyaviy shikoyat instituti konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanib, fuqarolar Konstitutsiyaviy sudga bevosita murojaat qilish huquqiga ega bo‘ldi. Jahon mamlakatlari orasida birinchilardan bo‘lib inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning maqomi konstitutsiyaviy darajada ta‘minlandi.

O‘z navbatida, 2024-yilda O‘zbekiston birinchi marta BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (ECOSOC) hamda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) Ma‘muriy kengashi a‘zolisiga saylandi. Shuningdek, O‘zbekiston vakili ilk bor BMT Inson huquqlari qo‘mtasiga a‘zo bo‘ldi.

O‘zbekiston BMT tuzilmalari, boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan inson huquqlarini ilgari surish va himoya qilish masalalari bo‘yicha ham faol hamkorlik qilmoqda. Mamlakatimiz tomonidan ratifikatsiya qilingan shartnomalarning bajarilishi bo‘yicha BMtning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mtalariga milliy ma‘ruzalar o‘z vaqtida taqdim etib kelinmoqda.

O‘zbekiston va Xalqaro mehnat tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilganini alohida qayd etish lozim. Ayni xalqaro tashkilot ko‘magida mamlakatimizda mehnat sohasida 40 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, 24 ta xalqaro konvensiya ratifikatsiya qilindi.

Inson huquqlarini himoya qilish va huquqiy ta‘lim samaradorligini oshirish, shuningdek, BMtning Inson huquqlari sohasidagi ta‘limga oid jahon dasturining to‘rtinchi bosqichida belgilangan vazifalarni bajarish bo‘yicha ishlar faol davom ettirilmoqda. Shu maqsadda yangi O‘zbekistonda Inson huquqlari bo‘yicha ta‘lim milliy dasturi izchil amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil iyun oyida Samarqand shahrida o‘tkazilgan Inson huquqlari bo‘yicha to‘rtinchi forum ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida 2018-yilda tashkil etilgan **Inson huquqlari bo‘yicha birinchi Osiyo forumi** jahon amaliyoti bo‘yicha xos **“Samarqand ruhi”ni olib kirgani ta‘kidlandi**.

Yoshlar tarbiyasi va
tadbirkorlik rivojiga
alohida e‘tibor

Bugungi kunda inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash g‘oyasi davlatimiz butun ichki va tashqi siyosatining tamol toshiga, yangi O‘zbekistonda demokratik islohotlarning eng muhim harakatlanitiruvchi kuchiga hamda ushbu ezu sa‘y-harakatlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi muhim omilga aylandi. Bu sa‘y-harakatlarni rivojlantirish yo‘lida O‘zbekiston Konstitutsiyasining **“inson — jamiyat — davlat”** tamoyilini hayotga tatbiq etish va inson huquqlariga taalluqli normalari 3,5 barobar oshirildi.

Shu ma‘noda, 2024-yilda yangi O‘zbekiston fuqarosi, jamiyati, davlati, davlat rahbarining diqqat-e‘tibori ana shu muhim konstitutsiyaviy prinsiplarni ro‘yobga chiqarishga qaratildi. Bunda, ayniqsa, Prezidentimizning nihoyatda tig‘iz kun tartibli doirasidagi qizg‘in amaliy faoliyati va uning samaralari alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezident Matbuot xizmatining har oyda e‘lon qilib borayotgan ma‘lumotlarini umumlashtirganda, davlatimiz rahbari 2024-yilda 115 ta qonun, 193 ta farmon, 373 ta qaror va 52 ta farmoyish imzolagani ayon bo‘ladi. Shuningdek, Prezidentimiz ishtirok etgan 126 ta selektor yig‘ilishi va taqdimotda eng dolzarb masalalar muhokama etilgan.

Shavkat Mirziyoyev 2024-yilda viloyatlarga 16 marta, jumladan, mamlakat poytaxti va Toshkent viloyatiga bir necha bor safar qildi. Bu tashriflar davomida hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi va joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari aholi hayotini yanada farovonlashtirish, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va shahar-qishloqlarni obod qilishga qaratilgan yangidan yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Aholining turli qatlamlari vakillari bilan samimiy muloqotda bo‘lib, yoshlar bilan tadbirkorlar muammolari yechimiga alohida e‘tibor qaratdi.

Faol va tashabbuskor
tashqi siyosat

O‘zbekiston Prezidenti dunyodagi va mintaqamizdagi vaziyatga g‘oyat sinchovlik bilan aniq va xolis baho berar ekan, zamonaviy tahdidlarni bartaraf etish uchun ikki va ko‘p tomonlama, mintaqaviy va global darajadagi o‘zaro hamkorlikni yanada kengaytirish zarurligini alohida ta‘kidlagani juda muhim: **“Bunday murakkab sharoitda hech bir mamlakat yakka holda barcha zamonaviy xavf-xatarlarni chetlab o‘tib, ularning sabab-qo‘baltlarini bartaraf etishga qodir emasligi ayni haqiqatdir”**.

Yangi O‘zbekiston dunyoning 156 ta davlati bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Yurtimizda 46 ta chet el elchixonasi, 3 ta bosh konsullik, 13 nafar faxriy konsul, 24 ta xalqaro va 27 ta xorijiy tashkilot vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O‘zbekistonning 59 ta diplomatik va konsullik vakolatxonasi mavjud. Mamlakatimiz 100 dan ortiq xalqaro tashkilot a‘zosi, turli ko‘p va ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini izchil rivojlantirib kelmogda.

O‘zbekiston Prezidentining 2024-yildagi faol va tashabbuskor tashqi siyosatining geo-grafiyasi qanday keng va samaralari qanchalik qamrovdorligini mana bu raqamlar ham yaqqol tasdiqlab turibdi. O‘tgan yil davomida **Prezidentimiz do‘st va hamkor mamlakatlarga 18-marta davlat, rasmiy va amaliy tashrifni amalga oshirgan. Xorijiy tashriflar chog‘ida nufuzli davlat arboblari bilan 47 ta uchrashuv o‘tkazgan**.

O‘z navbatida, 2024-yilda mamlakatimizga BMT Bosh kotibi, shuningdek, Belarus, Qozog‘iston, Malayziya, Rossiya, Mo‘g‘uliston, Qirg‘iziston, Germaniya kabi davlatlarning boshliqlari va hukumat rahbarlari tashrif buyurdi. **O‘zbekiston Prezidenti yil davomida mamlakatimizga tashrif buyurgan turli xalqaro va xorijiy delegatsiyalar bilan 90-marta uchrashdi**.

Yana bir e‘tiborli tashabbus: Prezident tashqi siyosiy muloqot sohasiga, ta‘bir joiz bo‘lsa, **“telefon diplomatiyasi”** amaliyotini tatbiq etdi. Davlatimiz rahbari 2024-yilda hamkor davlatlar boshliqlari va hukumatlar rahbarlari hamda tanqili davlat arboblari bilan telefon orqali 49-marta muloqot qildi.

Muxtasar aytganda, bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan chuqur siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar davrida yakuniga yetgan yil yangi O‘zbekiston jamiyati va davlati uchun barakali keldi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyati uchun umumiy muammolarni o‘zaro muloqot, madaniy-sivilizatsiyaviy, millatlararo va dinlararo hamkorlik orqali hal etishga asoydil intilmoqda.



4

NIGOH

2024-yil 29-dekabr, 265-son

Statistika

KALQARO STANDARTLAR

AHAMIYATI NIMALARDA KO'RINADI?

Statistika sohasida dunyoda eng yuqori turuvchi tashkilot bo'lgan BMT Statistika komissiyasi faoliyatida O'zbekiston faol ishtirok etib kelmoqda.

YANGI O'ZBEKISTON

icial yuz.uz_news yuz

Ulug'bek NOIPOV,
Statistika agentligi boshqarma boshlig'i

Doimiy o'zgaruvchan axborot muhitida milliy statistika idoralari foydalanuvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojiga moslashib faoliyat yuritishi bugunning talabidir. Ushbu ehtiyojlar qanoatlantirilishida xalqaro uslubiyatlar va boshqa mamlakatlar ilg'or tajribasining amaliyotga joriy qilinishi ma'lumotlar sifatini oshiradi, ularga ishonch ortishiga xizmat qiladi. Bunda xalqaro hamkorlik juda muhim o'rin tutadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston statistika tizimida bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi markaziy apparatida alohida boshqarma tashkil etildi. Xalqaro axborot almashinuvi va hamkorlik geografiyasini kengaytirib borish yillik statistika dasturlariga kiritila boshladi.

Hozir Statistika agentligi umumiy hisobda 17 ta xalqaro tashkilot bilan yaqindan aloqa o'rnatib, ularning 49 turdagi savolnomasi asosida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tarqatishni yo'lga qo'yg'an.

Bundan tashqari, xorijiy davlatlarning milliy statistika organlari bilan yaqindan hamkorlik o'rnatilgan. Jumladan Janubiy Koreya, Hindiston, Serbiya, Ozarbayjon, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Ukraina, Belarus, Rossiya va Malayziyaning tegishli idoralari bilan statistika sohasida hamkorlik memorandumlari imzolangan. Hozir Tailand va Buyuk Britaniya milliy statistika idoralari bilan hamkorlik o'rnatish rejalashtirilmoqda.

Statistika sohasida dunyoda eng yuqori turuvchi tashkilot bo'lgan BMT Statistika komissiyasi faoliyatida O'zbekiston faol ishtirok etib kelmoqda. U BMTga a'zo davlatlar statistika idoralari rahbarlarini birlashtiradi. Xalqaro statistika faoliyati, xususan, statistik standartlar, konsepsiyalar va uslubiyatlarni ishlab chiqish, xalqaro hamda milliy miqyosda amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qiluvchi asosiy organdir.

Joriy yil avvalidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktori Yevropa statistiklari konferensiyasi (YSK) byurosining yangi a'zosi sifatida rasman e'lon qilindi. Bu bilan O'zbekiston mazkur byuroga a'zo bo'lgan Markaziy Osiyodagi birinchi va MDHdagi ikkinchi davlat bo'ldi.

Bu bizga nima beradi? Rasmiy statistika ma'lumotlarining o'z vaqtida e'lon qilinishi, davriylik va ochiqchilik darajasi, aholi hamda uy-joylarni ro'yxatga olish, ma'lumotlarni boshqarish kabi dolzarb mavzular ushbu byuro muhokamalari markazidan o'rin olgan. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari tarixida mazkur nufuzli tashkilotga ilk bor qo'shilishi mamlakatimizning xalqaro darajada mavqei oshishi va statistika sohasidagi manfaatlarimizni ilgari surishga samarali xizmat qilmoqda.

Statistika agentligi erishgan yutuqlardan yana biri BMT Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESKATO) ning Statistika qo'mitasi byurosiga a'zolik



samarali qo'llash imkoniyatini oshirish ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda Xalqaro valyuta jamg'armasining Kengaytirilgan ma'lumotlarni tarqatish umumiy tizimi (Enhanced General Data Dissemination System (e-GDDS)) integratsiya qilingan hamda avtomatlashtirilgan yig'ma ma'lumotlar milliy sahifasi ishga tushirilgan. Ushbu sahifada Ctatistika agentligi, Markaziy bank, Moliya vazirligi va "Toshkent" RFB tomonidan 24 ta asosiy yo'nalishda 420 dan ziyod moliyaviy, ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkich o'z muddatida e'lon qilib borilmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning statistika bo'linmalari bilan axborot almashinuvi

Халқаро ташкилотлар	Саволномалар сон
БМТнинг статистика бўлими	10 та
МДХ Статистика қўмитаси	2 та
ЮНЕСКО	9 та
БМТнинг Озиқ-овқат ва кишлоқ хўжалиги ташкилоти (ФАО)	8 та
БМТнинг Европа иқтисодий комиссияси	5 та
ЮНИСЕФ	2 та
Халқаро меҳнат ташкилоти	2 та
SESRIC	2 та
Халқаро электралока иттифоқи	2 та
ЕВРОСТАТ	1 та
Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти	1 та
Осиё тараққиёт банки	2 та
Британия Геология хизмати	1 та
БМТнинг Атроф муҳит бўйича ташкилоти	1 та
Халқаро автомобиль йўллари федерацияси	1 та
БМТ Савдо конференцияси	1 та
Халқаро энергетика агентлиги	1 та

Agrotarmoq

Egatlab sug'orish usulida urug' qadashdan to terimgacha saklariga 10 million so'm sarflansa, yer ustidan tomchilatib sug'orish 1 gektar maydonga 7 million so'mga tushadi. Yer ostidan sug'orishda esa gektariga 2 million so'm xarajat qilinadi, biroq bunda hosildorlik eng yuqori ko'rsatkichga yetadi. Yer ostiga 35 santimetrgacha chuqurlikda o'rnatilgan rezina shlanglar kamida 5 yil ishlatilgani bois, har yili ularni o'rab, yig'ishtirib olish xarajati yonga qoladi. Demak, yer ostidan tomchilatib sug'orish samaraliroq ekani ayon bo'ladi.

Shu ma'noda, tomchilatib sug'orish usulini yanada keng yoyish kerakligi bot-bot ta'kidlanayotgani bejiz emas. Ayni zaruratni bugun dehqonlari ham chuqur his qilib, innovatsion sug'orish usulini to'la yoqlab

turibdi. Biroq sug'orish usulini o'rnatish xarajati ularni o'ylantiradi. Shu ma'noda, keyingi yil bunday texnologiyalarni joriy qilish uchun davlat byudjetidan yetarlicha mablag' yo'naltirilyapti. Tahlillarga ko'ra, 1 kub metr suvni dehqon dalasiga yetkazib berish uchun 300 million so'mga yaqin mablag' sarflanayotgan bo'lsa, bu respublika bo'ylab, 1,5 trillion so'mdan oshadi. Tomchilatib sug'orishga o'tish esa 1 trillion so'm mablag'ni tejab qolish, degani.

Imkoniyatiga qarab, ba'zi fermerlar o'z mablag'lari hisobidan bo'lsa-da, tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy qilayotir. Xususan, Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanidagi "Savay ko'rki" fermer xo'jaligi ham uch yildan buyon xitoyliklar ko'magida yangi texnologiyalardan foydalanib, paxta dalalarini sug'oryapti. Fermer xo'jaligi rahbari Nurmuhammad Qozog'ov tomchilatib sug'orish tizimi har tomonlama manfaatlilik ekanini quyidagicha izohlaydi.

— Suvni tejabgina qolmay, hosildorlikni ham oshiradi. Yer ostidan sug'orishda mineral o'g'itlar ham suv liniyasidan oqib, kerakli nuqtaga yetib boradi. Qolaversa, sug'orish uchun texnologiyalar tuproqning unumdorligini ham saqlaydi. Zero, egatlab sug'orilganda tuproq



unumdorligi yuvilib ketadi. Eski usuldan keskin farqli holda suv keraksiz joylarga, ya'ni ariq oralari ham bormaydi. Yoppasiga suv ichimganidan keyin tuproq qatqaloq bo'lmaydi, texnik ishlov berilmaydi. Egatlab sug'oranimizda ariq bo'ylab yoyilgan suv qatqaloq hosil qiladi. Uni yumshatish uchun, albatta, traktor yerni ag'darishi kerak edi. Paxta necha marta sug'orilsa, tuproqni yumshatish

tadbiri ham shuncha marta o'tkaziladi. Yana bir eng muhim jihat shuki, tomchilatib sug'orishda ishchi kuchi ikki barobar kamayadi. Ilgari 4-5 suvchi qilgan ishni hozir 2 suvchi ham eplay oladi. O'zimizdan misol. Avvalo, ishchi kuchiga ehtiyojimiz kamaydi. Yerimizni o'g'illarni bilan bemalol nazorat qila olapmiz. Sug'orish jarayonini ham o'zimiz boshqaramiz. "Suv yoyilib

ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayoni va tarqatish amaliyotini takomillashtirishdir. 2000-yildan beri Jahon banki bilan hamkorlikda O'zbekistonda uy xo'jaliklari kuzatuvlarini takomillashtirish bo'yicha alohida loyiha ham amalga oshirib kelinmoqda.

2000-yillarga kelib, dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoni yuqori sifatli, ishonchli, to'laqonli, dolzarb va o'zaro solishtirish imkonini beruvchi statistik ma'lumotlarga talabni oshirdi. Bu esa, o'z navbatida, mazkur yo'nalishda erishilayotgan yutuqlarni va milliy statistika tizimini rivojlantirish borasidagi islohotlar natijasini baholab borishni taqozo etdi.

Bu borada Jahon banki tashabbus ko'rsatib, 2004-yilda Statistika salohiyati indeksini ishlab chiqqan. Mazkur indeksda 3 ta asosiy yo'nalish — metodologiyaning so'nggi xalqaro andozalarga mosligi, ma'lumotlar mavjudligi va olish imkoniyati yaratilgani hamda barqaror e'lon qilib borilishi holati baholanadi.

Bugunga kelib, transformatsiya jarayoni, yangi axborot manbalari, foydalanuvchilarning statistik ma'lumotga ehtiyoji jadal oshib borishi ushbu indeksning hisoblash uslubiyatini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada Jahon banki qator xalqaro tashkilotlar ekspertlarini jalb etgan holda mullatga yangicha yondashuv asosida ishlab chiqilgan Statistika faoliyati samaradorligi indeksi (SPI) uslubiyatini taqdim etdi hamda 2022-2023-yil yakunlari bo'yicha natijalarini e'lon qildi.


Statistika agentligi tomonidan MDH Davlatlararo statistika qo'mitasi bilan ham yaqindan hamkorlik va o'zaro ma'lumot almashinuvi yo'lga qo'yilgan. 24 yo'nalishda 153 turdagi maxsus savolnomalar asosida statistik ma'lumotlar yetkazib berilishi natijasida O'zbekiston Respublikasining ko'rsatkichlari qo'mitaning statistik nashrlari va elektron axborot resurslarida aks ettirib kelinmoqda.

Statistika sohasida xalqaro hamkorlik kengayishi munosabati bilan mamlakatimizda soha bo'yicha o'tkazilayotgan xalqaro tadbirlar soni ham ortib bormoqda. Jumladan,

Bundan tashqari, Xalqaro valyuta jamg'armasi O'zbekistonda milliy hisoblarni takomillashtirish yuzasidan texnik missiyani amalga oshirib kelmoqda. Bugun Statistika agentligi Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan birgalikda Ma'lumotlarni tarqatishning maxsus standarti (Special Data Dissemination Standard — SDDS)ga o'tish bo'yicha ishlarni hamkorlikda bajarmoqda.

Jahon banki guruhi bilan kelishuvga ko'ra, 2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida statistikani rivojlantirishning milliy strategiyasi ishlab chiqildi. Bundan ko'zlangan maqsad milliy statistika tizimi salohiyatini oshirish,

Statistika faoliyati samaradorligi indeksida O'zbekiston ko'rsatkichlari dinamikasi



Yangilangan SPI avvalgi SCIning ayrim jihatlarini (statistik metodologiya mavjudligi, ma'lumotlar hajmi va davriylik normalariga rioya etilishi kabi) saqlab qolish bilan birga milliy statistika tizimlari salohiyatini yanada keng o'lchov vositalari yordamida baholashga qaratilgan. Qisqasi, davlatlarning milliy statistika tizimini to'liq, ishonchli va barcha jihatlarini inobatga olgan holda xolis baholash asosiy maqsad qilingan.

SPIning asosiy baholash tamoyillari milliy statistika tizimi faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi. Natijadorlikka erishish uchun to'g'ri tanlangan ma'lumotlar manbasi va zarur darajada infratuzilma talab qilinadi. Umuman olganda, mazkur indeksda yuqori baho olish uchun barcha elementlar "sog'lom" bo'lishi, ya'ni raqamlar mavjudlik, davriylik va barqarorlik prinsiplariga rioya etilgan holda yuqori sifatli uslubiyat asosida tadbirlar o'tkazilgan yoxud indikatorlari shakllantirilgan bo'lishi lozim. Baholashda

5 ta tamoyil (komponent)ga tayaniladi. Ularning har biri biz "o'lchovlar" deb ataydigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mazkur o'lchov birliklari mamlakatning statistik ko'rsatkichlarini baholashda mumkin bo'lgan asosiy ko'rsatkichlarning alohida tarkibiy qismidir. Demak, baholash 5 tamoyil va tegishli 22 ta o'lchovdan tashkil topgan.

Mazkur o'lchovlar 51 indikatorga asoslanadi hamda har bir o'lchov bo'yicha mamlakat statistik faoliyatini baholashda muhim o'rin tutadi. Maqsad indikatorlar emas, balki tamoyil va o'lchamlarga e'tibor qaratishdir.

Ushbu xalqaro indeksning uslubiyatiga to'xtalsak. Ma'lumotlardan foydalanish komponenti (yakuniy natija) besh turdagi foydalanuvchilarni qamrab oladi. Bular — qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat, fuqarolik jamiyati, ilmiy hamjamiyat va xalqaro tashkilotlar. Samaradorlikni baholash uchun ko'rsatkichlar har bir o'lchov birligi bilan bog'liq va milliy statistika tizimi mukammal bo'lsa, barcha o'lchovlar bo'yicha yaxshi bahoga erishish mumkin. Aksincha, tizim faoliyatida muammolar mavjud bo'lsa, muayyan o'lchovlar bo'yicha pastroq baho kuzatiladi. Aniqlangan bo'shliqlar foydalanuvchi guruhlari o'rtasidagi ustuvorlik haqida tushuncha beradi va xulosa chiqarishga ko'maklashadi.

Jahon bankingning 2024-yilda e'lon qilingan "Statistika faoliyati samaradorligi indeksi" (SPI)da 2023-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston 100 ballik tizimda 80,3 ball to'plab, 217 mamlakat orasida 62-o'rinni egalladi. Statistika faoliyati samaradorligi indeksida barcha MDH mamlakatlari ishtirok etgan. 2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida 4-o'ringa ko'tarilgan.

Hozir mamlakatimizda ma'lumotlar ochiqchilik va shaffofligini ta'minlash yuzasidan tizimli ishlar bajarib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasining Open Data Inventory (ODIN) ochiq ma'lumotlar reytingida 70 ball to'plab, dunyoda 30-o'rinni hamda Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egallaganini bu ishlarning natijasi sifatida ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, Londondagi Ochiq ma'lumotlar instituti (Open Data Institute — ODI) baholash tizimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portali data.egov.uz "Gold Level" oltin darajali sertifikatini oldi. Ma'lumot o'rinda aytish joiz: dunyoda atigi 3 ta sayt eng yuqori bo'lgan "Platinum Level" darajali sertifikatga ega. Ulardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti — stat.uz hisoblanadi.

BMT Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog'i va xalqaro ekspertlar tomonidan e'lon qilingan BRM (SDG Index) reytingida O'zbekiston 71,1 indeks bilan 166 mamlakat orasida 69-o'rinni egallagan, Open Data Watch tashkilotining so'nggi hisobotida O'zbekiston Ochiq gender ma'lumotlari indeksida 69,7 ball to'plagan holda eng yaxshi 20 mamlakat orasidan joy olgan. BMT Statistika bo'limi rasmiy veb-sahifasida O'zbekiston Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha eng ilg'or tajribaga ega 87 davlat qatoriga kiritilgan. Bular mamlakatimizda ushbu yo'nalishdagi ishlar samara berayotgani va xalqaro doirada nufuzi ortib borayotganidan dalolat.

bajarishda yetakchi fermerlarga davlatimiz tomonidan subsidiya ajratilyapti. 25 gektar paxta maydoniga tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilgan "Dardog hosildor yerlari" fermer xo'jaligi rahbari Odilbek Jumaboyev ham subsidiya olganlaridan.

— 2021-yildan buyon tomchilatib sug'orish tizimiga qiziqib kelaman. Bu borada qayerda o'quv seminarlari tashkil qilinsa, qoldirmay borardim. Chunki buning afzalligini Isroilning "Netafim" firmasi xodimlari tumanimizga kelib, tushuntirish ishlarni o'tkazganda chuqur anglab yetganman. Qolaversa, dastlab o'zimizning hududdagi "Xanteks" paxta to'qimachilik klasteri 45 gektar yerda shu usul tufayli erishgan yutuqlar ham bizda katta qiziqish uyg'otgan, — deydi fermer. — Shu paytgacha gektariga 900 kilo — 1 tonnadan o'g'it sarflagan bo'lsak, tomchilatib sug'orish sxemasida 450 kilodan o'g'it ishlatdik. Qani endi, hamma fermerlar yoppasiga sug'orish uchun texnologiyalardan foydalansa, katta natijaga erishilardi. Davlatimiz tomonidan kelgusi yili tomchilatib sug'orish tizimi uchun har qachongidan ko'p mablag' yo'naltirilayotgani mirishkorlarga umid bag'ishladi. Shu qatori tumanimizdagi talabgorlar ham subsidiya olish borasidagi murojaati ijobiy yechim topishi mumkinligidan xursand.

Munojat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



MILLATIMIZ RUHIYATI

UNI KO‘TARA OLSAK, ENG YUKSAK MARRALAR BIZNIKI BO‘LADI

Ma'lumotlarga ko'ra, hozir Yer yuzida ishsizlar soni 210 milliondan ortiq. Bu dunyo bo'ylab ishsizlik darajasi COVID-19 pandemiyasidan keyin qariyb 25 millionga kamayganini anglatadi. Ayni ko'rsatkich xalqaro mehnat bozori asta-sekin o'nglanayotganidan darak beradi.

Ishsizlik kambag'allik degani. Shu tufayli ishsizlik darajasi qancha past bo'lsa, kambag'allik darajasi ham shuncha pasayishi aytiladi. Darhaqiqat, rivojlangan mamlakatlarda ishsizlikni past ko'rsatkichda ushlab turishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratib kelingan. Biroq mamlakatimizda kambag'allik, ishsizlik ko'rsatkichi yaqin yillargacha siyosiy minbarlarda deyarli tilga olinmadi, aniq raqamlarda aks ettirilmadi, kambag'allikka "kam ta'minlangan" niqobi kiydirildi. Davlatimiz rahbari Prezidentlik lavozimiga kirisharkan, ayni masalalarni hal etmay turib, mamlakatni jadal rivojlantirib bo'lmasiligini ochiq-oydin aytdi.

Jumladan, 2020-yil 27-fevralda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davanalishi, bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo'layпти, degan savol har kuni qiyinaydi", degan edi. Bu, shubhasiz, xalqimizning iqtisodiy ahvolini yaxshilash davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida ekanini anglatadi.

Biroq uzoq yillar yashirib kelingan kasallikni tez davolab tuzatish imkonini yo'q. Kambag'allik, ishsizlik bilan bog'liq holatlar oz emas edi. Ularni statistika ma'lumotida bir nafasda o'qisak-da, muammolarni hal qilish uchun yillar kerak. Bu yo'lining mashaqqatini zimmaga olmoq uchun jasorat zarur edi. Davlatimiz rahbari o'zidagi ana shu jasoratni atrofida qilargaham singdirdi.

Xo'sh, ishini nimadan boshlash kerak? Nima qilsa bo'ladi? Bu sa'y-harakatlar boshlanganda ko'pchilik ishonchsizlik bilan qaragani ham haqiqat. Lekin natija gapirgani yaxshi: mamlakatimizda so'nggi to'rt yilda 3,5 million fuqaro daromad olish imkoniyatiga erishib, kambag'allik darajasi to'rt yil avvalgi 17 foizdan 11 foizga tushdi. Bu har yili o'rtacha 600 mingga yaqin odam kambag'allikdan chiqdi degani. Kelgusi uch yilda bu ko'rsatkichni 7 foizga tushirish reja qilingan. Ya'ni uch yil ichida yana qariyb 2,5 million yurtdoshimiz doimiy daromad olish imkoniga ega bo'ladi. Dunyoning ayrim nuqtalarida har yili necha millionlab odam qashshoqlikka mahkum bo'lib

Marra katta olinyapti. 2025-yilda 1 million kishini kambag'allikdan chiqarish Vazirlar Mahkamasi iqtisodiy kompleksining asosiy vazifasi etib belgilandi. Kambag'al oilalarga mansub bolalar maktablarda chet tili, kasb-hunar va IT bo'yicha bepul bilim olishi uchun 500 milliard so'm ajratiladi.

jumlani ham bir nafasda o'qib ketish mumkin, lekin, aslida, uning ahamiyati nihoyatda katta. Xo'sh, kambag'al oilalarga psixologik yordam berish nima o'zi? Pul, oziq-ovqat mahsulotlari berilishi, boringki, turli imtiyozlar taqdim etilishidan xabardormiz, lekin psixologik yordam qanday bo'ladi?

Inson boy bo'lishi uchun maqsadi ham, dunyoqarashi ham katta bo'lishi lozim. Yevropalik taniqli tadbirkorning "Boyish insonning ichida boshlanadi", degan gapi bor. Ishonchsizlik, qo'rqqulik muhitida harakat yo'qoladi, natija yuzaga chiqmaydi. Yon-verimizni kuzatib tahlil qilsak, bir xil hayot tarziga ko'nikib qolgan, o'zgarishlarga ishonmaydigan, urinib ham ko'rmay turib, qismat ekan-da deb ko'nikib yashayveradiganlar topilishini ko'ramiz. Ularning ertamiz bugunimizdan yaxshi bo'lishiga ishonchi tushib ketgan. Afsuski, xuddi shunday oilalarda ulg'ayayotgan farzandlarning ham ko'pida ayni ruhiy so'niqlik bor. Ularga qarmoq berishdan oldin ishonch baxsh etish lozim. Aks holda, qarmoqning ham nafi yo'q. Davlatimiz rahbari aynan shu jihatni nazarda tutdi: endi kambag'allik darajasidagi har bir yurtdoshimizga psixologik yordam beriladi. Xalqona aytganda, ularning ruhiyatiga "Odam qilgan ishini odam qiladi, siz ham bemalol eplaysiz", degan jaydari tushuncha singdiriladi. Buning individual amalga oshirilishi esa natijadorlikni ancha oshiradi. Sababi har kimda vaziyat har xil.

Marra katta olinyapti. 2025-yilda 1 million kishini kambag'allikdan chiqarish Vazirlar Mahkamasi iqtisodiy kompleksining asosiy vazifasi etib belgilandi. Kambag'al oilalarga mansub bolalar maktablarda chet tili, kasb-hunar va IT bo'yicha bepul bilim olishi uchun 500 milliard so'm ajratiladi. Bu, shubhasiz, kambag'al oilalardagi ishonchsizlik muhitini yo'qotib, uning o'rni qat'iyat, natijadorlikni paydo qilishga yaqqol misol bo'ladi.



Ishini yaxshi ko'rgan inson ish o'rini ham ko'paytiradi. Qanday qilib? Masalan, kasbini sevib bajaradigan hunarmand rivojlanishni, faoliyatini kengaytirishni maqsad qiladi. Bu esa xodimlar sonini oshirishni talab etadi. Natijada hunarmand yangi shogirdlar olishi zaruratga aylanadi. Bu esa jamiyatda yana bir necha yosh ishli bo'ladi, degani. Endi

tasavvur qiling: mamlakatimizda faoliyatini kengaytirish maqsadida yurgan tadbirkorlar kammi? Aytmoqchi bo'lganimiz, ish o'rini ko'paytirish faqat xorijdan investorlarni olib kelish hisobiga bo'lmaydi. Buning uchun jamiyatimizning o'zida ham yetarlicha resurs mavjud. Hamma gap ularni topish, kashf qilish, qo'llab-quvvatlashda.

Davlatimiz rahbari jamiyatning eng quyi bo'g'ini — mahallaga katta e'tibor qaratgani ham bejiz emas. Bu borada mahallaning funksiyalari oshirib yurgani yaxshi samara berdi. Mahalla — vatan ichra kichik vatan. Bunda odamlar bir-birining holidan xabardor, bir-biriga g'amxo'r. Quvonchingizni ham, tashvishingizni ham baham ko'rish mumkin bo'lganlarning asosiy qismi mahallangizda istiqomat qiladi. Biroq tadbirni rejalasak, mahalla raisiga murojaat qilamiz, muammoli vaziyatga duch kelsak ham mahalla raisini oraga qo'shamiz. Axir ular bizni yaxshi taniydi, dard quvonchimizni his qiladi. Shunday ekan, biz ilgari eshigida soatlab kutgan idoralarda hal bo'ladigan ishlarni bitirish vakolati mahalla boshqaruviga berilgani juda zo'r ish bo'ldi. Mana, ayni tashabbus amaliyotga joriy etildi, natijada xalqimizga beminnat xizmat qilmoqda.

Ilgari qishloqlarga monitoring uchun tuman yoki shahar hokimliklaridan vakillar borardi. Ular, asosan, oldindan belgilangan oilalarga kirar, nima deyish kerakligi oldindan aytilgan xonadon egalari bilan suhbat o'tkazar va jarayonni suratga muhrlab qaytib ketardi. Bir

marta kirilgan xonadonga "holati o'rganilgan" degan "asos" bilan 3-4 yil qayta kirilmas edi. Vaholanki, 3-4 yil uzoq muddat va uning mobaynida istalgan o'zgarishlar o'zgarib ketishi mumkin. Bugun esa mahalla tizimi muammoli oilalarni yaxshi ma'noda "tinch qo'yamayпти". Ishsiz, qo'lida hunari yo'qlarga "Ana, monomarkazda o'qing", farzandlarining bandligi ta'minlanmagan bo'lsa, "Mana, bolangizni o'quv markazida o'qiting, davlat tomonidan yordam beriladi", deyilayпти. Tomorqasi bo'sh yotgan bo'lsa, urug', o'g'it ko'tarib kelayпти. Hosil yig'imi mahallada xaridorni ham o'zi topib beryapti. Gapning indalosini aytganda, bugun "mahalla yettligi" dangasalikka o'rganib qolgan odamlarni hol-joniga qo'yamayпти.

Darhaqiqat, bugun "mahalla yettligi" eng quyi hokimiyatga aylandi. Uning tarkibida aholi davlatning g'amxo'rligini his etib yashashi uchun zarur barcha xodimlar bor. Tarkib mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xodimdan iborat.

Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrda tegishli qarori bilan mahallalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etilgan. Respublika kengashiga Bosh vazir, hududiy kengashlarga esa hokimlar rahbarlik qiladi.

Kengashlar "mahalla yettligi" qo'ygan masalalar bo'yicha har bir tumaning xususiyatidan, mahallalarning o'ziga xosligidan kelib chiqib, muammolarga yechim topadi, moliyaviy manbalarni aniqlaydi. Bir so'z bilan aytganda, bugun mahalla hokimlik topshiriqlari bilan emas, hokimlik mahallaning muammolari bilan shug'ullanadi.

Nega bu ma'lumotlarni keltirdik? Gap shundaki, bugun mamlakatimizda davlatning g'amxo'rliqi eng quyi bo'g'ingacha yetib keldi. Ya'ni u endi takomillashish bosqichiga o'tgan. Masalan, kelgusida mahalla raisining vakolati kengayishi yoki "mahalla yettligi" "mahalla o'nligi" darajasigacha ko'payishi mumkin, ammo maqsad aholining farovonligini oshirish bo'lib qolaveradi. Endi hamma gap mutasaddilar o'z vazifasini vijdonan, bekamu ko'st bajarishda davom etmoq'da. Shundaygina yuqorida aytilgan barcha maqsadlarimizga og'ishmay yeta olamiz.

Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda "oldimizda g'oyat ulkan marralar turibdi" hamda "bu yangi davrda endi eskicha ishlab bo'lmaydi". Shu tufayli aholi farovonligini oshirish borasidagi islohotlarga barchamiz ko'makdosh bo'lishimiz ayni muddao. Bu borada ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, madaniyat va san'atning ta'sir kuchidan foydalanib, yurtdoshlarimiz ruhiyatini ko'tarish, qalbidagi ertangi kunga ishonch uyg'otish, ertadan emas, bugundan boshlab yaxshi yashashimiz kerakligini tushuntirish, yoshlarda kuchli iroda shakllantirish shu tuman farzandi sifatida har birimizning mas'uliyat bilan yondashishimiz lozim bo'lgan vazifamiz bo'lishi kerak. Shundaygina eng yuksak marralar bizniki bo'ladi!

Qadriyat

DO'MBIRA DILNI, DO'MBIRASOZ ESA ELNI AKS ETTIRADI



Do'mbira xalqimizning qadimiy cholg'u asobi. Juda ko'plab milliy cholg'u asoblarimizning onasi — asosi bo'lgan. Surxondaryo viloyatining Bandixon tumanida biydek cho'l hududda joylashgan Gulbog' mahallasida yashovchi Normurod Shoydilov qariyb yarim asrdan beri do'mbirasozlik bilan shug'ullanib keladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



— Do'mbira yashashning o'z an'analari, sir-asrorlari bor. Chunki musiqiy cholg'uga aniq soz va ohangni sig'dirish kerak bo'ladi. Uzoq yillardan buyon ota-bobolarimizdan meros qolgan an'anaviy uslubda do'mbira yasashga e'tibor qaratib kelaman, — deydi usta Normurod Shoydilov. — Ota-bobalarim ham do'mbirasoz bo'lgan, ammo elga

dovruq solgudek emas. Do'mbira yasayman deb, qachon birinchi yog'och yo'nganimni eslolmayman. Ancha bo'lgan.

Do'mbirasozlik hamma zamonlarda ustadan o'ta nozik did va yuksak mahorat talab qilgan. Do'mbira ba'zan naqshlar bilan bezatilgan, gohida esa oddiylikka yo'g'rilgan bo'lsa-da, uning quvnoq va dardchil navosi bir xil

bo'lavergan. Yaratilgani ming yilliklarga yondosh bu soz go'yo falsafa yanglig' olam-olam ma'noga ega.

Normurod Shoydilovning aytishicha, u uzoq yillar boshqa sohada mehnat qilgan. Ammo tushida vafot etgan do'mbirasoz ustoz tez-tez namoyon bo'lib, do'mbira yasa, mevali daraxtdan yasa deb, do'mbira yasashning sir-

asrorlarini o'rgatar ekan. Shu-shu kasbini tashlab, do'mbira yasab, baxshilarga sotib kun ko'rib yurgan do'mbirasozning bugun ishi baroridan kelmoqda.

— Sizga aytam, do'mbira yasashda ham katta bir ixlos va ilohiylik bor. Do'mbirani qo'lga olgan va uni o'rganishga unagan baxshi bo'la olmagandek, hamma ham do'mbira yasovchi usta bo'lmagan, — deydi Normurod Shoydilov. — Bu juda qiyin va bir necha bosqichli jarayon. Do'mbirasoz usta odatda kuz faslida, hamma dov-daraxtlar uyquga ketish arafasida, meva bermay qolgan, yirikroq daraxtni kesadi. Do'mbira yasaladigan yog'och kamida yarim yil — to'qqiz oygacha, ba'zan bir yilgacha yerga ko'mib qo'yiladi. Sizga aytam, bitta do'mbira tayyor bo'lib, baxshining qo'lga yetib borguncha kamida ikki yilcha vaqt ketadi.

Do'mbira yasash bilan shug'ullanib kelayotgan otaxonning farzandi Safar Shoydilov taniqli baxshi bo'lib, O'zbekiston xalq baxshisi unvoniga sazovor bo'lgan. U ham yaxshigina do'mbira yasashning epini biladi. Ot o'rini to'y bosar. Otaxonning nabiralari ham nafaqat do'mbira chaladi, balki uning yasashiga ham qo'llari yaxshigina kelishadi.

Yana bir gap, do'mbiraning dunyo bo'ylab yoyilishida "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "San'at eksporti" milliy loyihasi"ning

ham ahamiyati katta bo'lyapti. Shu sabab bugun Normurod Shoydilov kabilar yasagan do'mbiralar nafaqat o'zimizda, balki xorijda ham bozorini topyapti.

— Hunarli kishi xor bo'lmay" degan hikmat bor. Qadimdan qolgan bu o'git otabobalarimizning muayyan hunarni tanlashiga turtki bo'lgan. Quvonarlisi, bu ezu an'ana bugun ham o'z qadriini yo'qotgani yo'q, — deydi Termiz davlat universiteti dotsenti Abduraim Tursunov. — Surxondaryoda azaldan, ayniqsa, hozirgi kunda Normurod Shoydilov kabi soz yasovchi usta hunarmandlar qadrlab kelinadi. Bu esa ularning faoliyati ko'lamining tobora kengayib borishiga sabab bo'lmog'da.

Bugungi texnika zamonida do'mbirani dastgohlarda tezlikda yasashdan osoni yo'q. Lekin azal-azaldan qo'l mehnatida tayyorlangan buyumlar hamisha yetuk san'at asariga tenglashtirilgan.


— Bilasiz, bizda turli dostonchilik maktablari bor. Masalan, Surxon vohasida Sherobod, Qashqadaryoda Qamay, Samarqandda esa Bulung'ur maktablari bo'lgan. Maktablardagi avlodlarning ijro uslubi, repertuari, ovoz, ohang, nag'masida, hatto chertayotgan do'mbirasida ham o'ziga xos jihatlari bor. Ammo hamma maktab baxshilari aynan do'mbira chertib, doston va termalar aytib kelgan. Umumiylik yo'qolmagan, — deydi "Boysun" folklor ansambli a'zosi, musiqashunos, TerDU dotsenti Sattor Qurbonov. — Yanada e'tiborlisi, bugun ham do'mbirasozlar do'mbira yasashning qadimiy an'anaviy yo'llaridan og'ishmagan holda cholg'u asobini yangi elementlar bilan yanada boyitmoqda.

Normurod Shoydilovning aytishicha, yugurik vaqt hamma narsaga o'z ta'sirini o'tkazgani singari oltin soz — do'mbirani ham muayyan ma'noda o'zgartirgan. Ilgari do'mbiraning tori qo'yning ichagidan yasalgan. Xalq ko'paygani, dostonlar berilib tinglangani ortidan auditoriya kengayib bordini sari do'mbiraning sadosi ham baland chiqishi lozim bo'lgan. Hozirgi plastik torlar esa ovozni sezilarli oshirgan.


Barcha zamonlarda do'mbira yasash sermashaqqat ish va alohida mahorat talab qilgan. Do'mbira qanday ohang chiqarishi eng mayda detallarga ham bog'liq. Yillar davomida do'mbira zamon talablariga moslashgan bo'lsa-da, bu jihat do'mbira sadosiga ham, tuzilishiga ham unchalik ta'sir ko'rsatmagan.

Normurod boboning yana aytishicha, bu kasb-hunar yo'qolib ketmasligi kerak. Bugun urtda uning rivoji uchun hamma sharoit bor. Faqat ko'ngilda g'ururi jo'sh urib, mehnat yillik qadriyatdardan faxrlanib, qalbiga jo qilguvchi sobit avlodlar kerak. Zero, do'mbira dilni aks ettirgandek, do'mbirasoz elni namoyon qiladi.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



SOG'LOM TURMUSH SAHIFASI



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

“SIVILIZATSIYA KASALLIGI” —

KAMHARAKATLILIKDAN JISMONIY FAOLLIK SARI



Inson umrining davomiyligi ko'p jihatdan turmush tarzini to'g'ri shakllantirishga bog'liq. Sog'lom bo'lish uchun to'g'ri ovqatlanish va zararli odatlardan voz kechish hamda doimiy jismoniy faol bo'lish zarurligi isbot talab etmaydigan haqiqat. Bugungi tezkor zamonda, zamonaviy texnika vositalari qulaylik yaratgan va ofisga “mixlanib” ishlash harakatni cheklab qo'yg'an bir davrda jismoniy mashg'ulotlarga vaqt va hafsala yetishmasligi ham bor gap. Ammo kamharakatlilik oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarning tiriklikka, umrga daxl qilishini ko'z oldingizga keltirsangiz, hayot qanchalar go'zal, salomatlik esa asrab-avaylanishi kerak bo'lgan bebaho ne'mat ekani ayon bo'ladi. Sog'liqni saqlash vazirligi bosh gerontologi va geriatri, tibbiyot fanlari doktori Yulduz Tolipova bilan shu mavzuda suhbatlashdik.



— Kamharakatlilik o'zi nima va u qanday asoratlarga sabab bo'lishi mumkin?

— Gipodinamiya — kamharakat hayot tarzi. Buning natijasida organizmning mushaklar faoliyati zaiflashadi, muhim a'zolarda nafas olish, qon aylanishi, ovqat hazm qilish, metabolizmning buzilishi kuzatiladi. Bugungi kunda insoniyat texnologik taraqqiyot ne'matlaridan bahramand bo'lish bilan birga uning natijasida yuzaga keladigan kamharakatlilik asoratidan aziyat chekmoqda. “Sog'ligingda yugurmasang, kasal bo'lganingda yugurishga majbur bo'lasan”, degan gap bejiz tez-tez tilga olinmayapti. Kamharakatlilik jismoniy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan doimiy charchoq hissinı yuzaga keltiradi. Bu yurak tez-tez urishi (taxikardiya) va nafas qisilishi bilan hamroh bo'lishi mumkin. Jismoniy faollik bo'lmaganda nafaqat mushaklar, balki qon tomirlari ham asta-sekin elastikligini yo'qotadi va to'qimalarni kislorod bilan ta'minlash yomonlashadi. Kamharakatlilik tana vazni ortishi, semizlik, arterial bosim oshishi, gipertoniya, yurak ishemik kasalligi, surunkali yurak yetishmovchiligi, miya infarkti, miokard infarkti va boshqa asoratlarga sabab bo'ladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

— Kamharakatlilik bilan qanday kurashish mumkin?

— Dori yordamida undan xalos bo'lish mumkin emas. Yagona samarali va qulay vosita — doimiy o'rtacha jismoniy faoliyat. Tez yurish yoki yugurish yetarli, hatto toza havoda sekin, ammo uzoq yurish ham koni foyda. Mashqlar har bir insonning salomatligi va jismoniy holatiga qarab individual tanlanadi. Chidamlilikni asta-sekin oshiradigan yuklamalar juda muhim. Hech bo'lmaganda, har kuni ishga borayotgan va qaytayotganda ikki-uch bekat piyoda yurish mumkin. Odam sekin yurganda muayyan yo'lni bosib o'tadi. Bu uni tinchlantiradi, zo'r qisqirishdan xalos etadi, fikrlashga, mushohada qilishga undaydi. Agar ko'proq va tezroq piyoda yurilsa (kamida 10 ming qadam), sport zalida mashg'ulot o'tagan kabi foydali bo'ladi. Har kuni qadamlar soni oshirib boriladi. Agar siz sport zaliga borishga qaror qilgan bo'lsangiz, unda kardiomashg'ulotlarga — yurak-qon tomir ish faoliyatini oshiradigan mashqlarga alohida e'tibor berishingiz kerak. Yugurish yo'lakhasida mashg'ulot qilayotganda yurak urish tezligi va holatingizni kuzatib borishingiz shart. Mashqlar kamharakatlilikdan qochishning yaxshi usuli bo'lib, uning yordamida siz mushaklarni mustahkamlashingiz, salomatligingizni yaxshilashingiz va vazningizni me'yorda ushlashingiz mumkin.

— Jismoniy faollikning me'yori bormi?

— Bunga aniq dalillarga asoslangan ko'rsatkichlar bor. Insonning holatidan kelib chiqib, o'ziga mos, shikoyat chaqirmaydigan jismoniy yuklama bo'lishi kerak. Ayniqsa, ertalabki badantariya odam organizmi uchun juda zarur. U nafaqat organizm a'zolari va to'qimalarda moddalar almashinuvini kuchaytiradi, balki tanadagi mushaklarni uyg'otadi. Agar organizm kamharakat bo'lsa, hatto arziyas jismoniy yuklamalar va chiniqish har qanday yoshda sog'lomlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy yuklamalar yuqori kaloriyalı ovqatlar va o'troq hayotning zararli ta'sirini butunlay bartaraf etadi. Jismoniy yuklamadan keyin qonda xolesterin va qand miqdori kamayadi.




Mushaklar jadal ishlashi tufayli qon bosimi mo'tadillashadi. Organizmda muntazam qon aylanishi va moddalar almashinuvi yaxshilanadi. Yurak-qon tomir tizimi faoliyati me'yorda ishlaydi, qo'l-oyoq mushaklari mustahkamlanadi.

Sog'lomlashtiruvchi jismoniy yuklamalar tizimini aniqlash va yaratishda ommabop mashqlarning uchta asosiy shakli qo'llanadi: har kungi ertalabki badantariya, haftada 3-4 marta tizimli jismoniy mashqlar, har kungi piyoda yurish.

Mashg'ulotlarni organizmning biotrimiga mos ravishda o'tkazish maqsadga muvofiq. Ya'ni moddalar almashinuvi, tana harorati va markaziy asab tizimining qo'zg'alish jarayonlari

Jismoniy yuklamalar so'ngida chuqur nafas olish va davomli nafas chiqarish juda foydali. Bu bo'shashtiruvchi va tinchlantiruvchi samara beradi, taranglikni yo'qotadi.

Ba'zi tadqiqotchilar fikricha, aqliy mehnat bilan mashg'ul kishilar jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishining optimal miqdori hafta davomida 6-9 soatni tashkil etishi lozim. Bu dam oluvchi, motivatsiya beruvchi, bo'sh vaqtning samarali va qiziqarli o'tishiga xizmat qiluvchi mashg'ulotlar bo'lishi mumkin. Bunday mashg'ulotlar, o'z navbatida, odamning o'zini yaxshi his qilishiga va salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda to'liq sog'lom hayot tarzini shakllantirishga yordam beradi.



eng yuqori darajaga ko'tarilgan vaqtga to'g'ri kelishi lozim. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy yuklamalarga qo'l-oyoqlar uchun gimnastik, umumiy rivojlantiruvchi, maxsus dinamik va statistik xarakterga ega, bo'shashtiruvchi va nafas mashqlari kiradi.

Mashqlar turgan, o'tirgan, yotgan va yurgan holatda bajariladi. Mashg'ulotlar muddati maqsadga qarab 20-30 daqiqa yoki 1 soatgacha davom etadi.

To'g'ri nafas olish har qanday jismoniy yuklamalarning muhim elementidir, to'g'ri nafas olganda mushaklar energiya bilan ta'minlanadi. Burun orqali nafas olish ma'qul, ammo katta jismoniy yuklamalarda og'iz orqali nafas olishga o'tish mumkin. Bu yutib chiqarilayotgan havo oqimi qarshiligini kamaytiradi. Ko'krak qafasida bosim tushishi, nafas olish va chiqarishda o'pkaning ventilyatsiyasini ta'minlaydi.

Ayrimlar jismoniy mehnat bilan shug'ullangani uchun ertalabki badantariyani inkor etadi. Ayniqsa, uy bekari jismoniy faollikni ro'kach qilib, ertalabki badantariyani xohlamaydi. Bu, albatta, noto'g'ri fikr. Chunki har qanday jismoniy mehnat yoki uy yumushlari, eng avvalo, adrenalın ajralishi bilan bog'liq aniq bir taranglikni talab etadi. Harakati yuklamalar ruhiy-emotsional holatga ijobiy ta'sir ko'rsatib, stresslarga chidamlilikni oshiradi. Gimnastik mashg'ulotlarda odam ruhiy-emotsional hordiq chiqaradi. Bu organizmga ijobiy ta'sir etib, salomatlik miqdorini oshiradi.

Sport bilan shug'ullanish faqat yuqori rekordlarga erishish uchun emas. Ertalabki badantariya, sayr qilish, trenajyor zaliga qatnash muntazam va tizimli bo'lishi har bir odamning hayot tarziga aylanishi shart.

Haftada kamida uch marotaba bir soatdan

fitness mashg'ulotlari zarur. 10 ming qadam yurish tavsiya etiladi. Lekin bu harakat insonni charchatib qo'ysa, holatiga salbiy ta'sir qilsa, ayniqsa, qon bosimi, yurak urish tezligi oshishi, nafas siqilishiga olib keladigan bo'lsa, bu sog'lom turmush tarziga kirmaydi. Xastalik chaqiruvchi omil bo'ladi. Aksariyat jismoniy harakatlarni sekin-astalik bilan boshlab, yuklamalar oshirib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yoshi kattalar, ayniqsa, yurak-qon tomir xastaligi bor insonlarga yugurish, murakkab jismoniy harakatlanish tavsiya etilmaydi. Suv havzalarida kamida 45 daqiqa suzish butun mushaklar bo'shashtirishi, tanadagi quvvat tiklanishiga sabab bo'ladi. Bu organizmning chiniqishi, immun, yurak-qon tomir, nafas olish, oshqozon-ichak va barcha a'zolar faoliyati yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Oilada sport va jismoniy mashqlarga yo'naltirilgan ijobiy muhitni yaratish kerak. Buni kattalar o'z zimmasiga olishi va ibrat bo'lishi zarur. Albatta, jismoniy yuklamalar chog'ida shifokor nazoratida bo'lib turish maqsadga muvofiq.

— Hozir ko'p uchrayotgan charchoq sindromining sababi nima?

— Surunkali charchoq sindromiga olib keluvchi sabablar hanuzgacha aniqlanmagan. Biroq ushbu kasallikning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan xavf omillari mavjud. Bu to'qimalarga kislorodning yetarli darajada bormasligi, hujayra metabolizmi buzilishi, atrof-muhit sharoitlari yomonlashishi, shahar muhitida kundalik stress va hayot ritmlari kuchayishi, turli kasalliklar bilan bog'liq.

Jismoniy faollik yoki sport bilan shug'ullanganda kuzatiladigan charchoq odatiy hol. Dam olganda bu holat o'tib ketadi. Ammo doimiy charchoq kamharakatlilikning hamrohi ham bo'lishi mumkin.

Noto'g'ri turmush tarzi, kam uxlash, quyosh nuri va toza havo yetishmasligi doimiy stress, depressiya, xavotirlanish hissi, muvozanatsiz ovqatlanish, sifatisiz mahsulotlar, ovqatning ortiqchaligi yoki yetishmasligi, vitaminlar yo'qligi, shaharlardagi ekologik vaziyat kamharakatlilikka sabab bo'ladi. Fiziologik muolajalar, davolash mashqlari, yaxshi uyqu, parhez, rejalashtirilgan kun tartibi tavsiya etiladi. Shuningdek, muvozanatli ovqatlanishga o'tish, ish va dam olish uchun vaqt ajratib, kunni oldindan rejalashtirish samara beradi. Mushaklar tonusini saqlash uchun uyda sport bilan shug'ullanish yoki jismoniy mashqlar bajarish, tabiatda faol dam olish ham koni foyda.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA
suhbatlashdi.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetlari tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2574.
39932 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 00:05 Topshirildi — 00:15